

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TODJIYEV JAMOLIDDIN NASIRIDDINOVICH

**ATROF-MUHIT OBYEKTARIDAN NAFTALIN ASOSIDAGI YANGI
ORGANIK REAGENTLAR BILAN AYRIM OG‘IR VA ZAHARLI
METALL IONLARINI SPEKTROFOTOMETRIK ANIQLASH
USULLARINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.02 – Analitik kimyo

11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Content of the abstract dissertation of doctor of science (DSc)

Todjiyev Jamoliddin Nasiriddinovich

Atrof-muhit obyektlaridan naftalin asosidagi yangi organik reagentlar bilan ayrim ogʻir va zaharli metall ionlarini spektrofotometrik aniqlash usullarini ishlab chiqish.....3

Тоджиев Жамолиддин Насириддинович

Разработка спектрофотометрических методов определения ионов некоторых тяжёлых и токсичных металлов новыми органическими реагентами на основе нафталина в объектах окружающей среды.....31

Todjiev Jamoliddin

Development of spectrophotometric methods for the determination of some ions of heavy and toxic metals using new organic reagents based on naphthalene in environmental objects.....61

Eʼlon qilingan ishlar roʻyxati

Список опубликованных работ

List of published works.....66

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TODJIYEV JAMOLIDDIN NASIRIDDINOVICH

**ATROF-MUHIT OBYEKTLARIDAN NAFTALIN ASOSIDAGI YANGI
ORGANIK REAGENTLAR BILAN AYRIM OG‘IR VA ZAHARLI
METALL IONLARINI SPEKTROFOTOMETRIK ANIQLASH
USULLARINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.02 – Analitik kimyo

11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/K141 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.ik-kimyo.nuuuz.uz va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchilar:

Smanova Zulayxo Asanaliyevna
kimyo fanlari doktori, professor

Turayev Xayit Xudaynazarovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yaxshiyeva Zuxra Ziyatovna
kimyo fanlari doktori, professor

Sottiqulov Elyor Sotimboyevich
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Usmanova Xilola Umataliyevna
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Umumiy va noorganik kimyo instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi Bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil «17» 04 soat «11⁰⁰» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-07-88, faks: (+99871) 246-02-24; e-mail: ilmiy_kengash@nuuuz.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (46 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.) Tel: (+99871) 246-07-88, 277-12-24; faks: (+99871) 246-02-24; e-mail: ilmiy_kengash@nuuuz.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil - «04» 04 kuni tarqatildi.

(2025 - yil «03» 04 dagi 11 -raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.Sh. Daminova

Bir martalik ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

N.X. Qutlimurotova

Bir martalik ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, k.f.d., professor

B.N. Babayev

Bir martalik ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi Bir martalik
Ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda texnologiyalarning rivojlanishi atrof-muhit obyektlarida og‘ir va zaharli metall (OZM) ionlarini konsentrlanishiga olib kelmoqda, bu esa inson salomatligiga salbiy ta‘sirlari yildan-yilga ortishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu muammo global tavsiflarga ega bo‘lib, atrof-muhit obyektlari tarkibidagi OZM ionlarini muntazam nazorat qilishni talab etadi. Bunday muammolarni hal qilishda dastlab, iqtisodiy jihatdan tan narxi arzon, sezgir va tanlab ta‘sir etuvchan aniqlash usullarini yaratish muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa funksional analitik va analitik faol guruhlariga ega bo‘lgan, suvda yaxshi eruvchan naftalin asosidagi yangi organik reagentlardan foydalangan holda spektrofotometrik aniqlash usullarini yaratib, OZM ionlarini aniqlash va monitoring qilish katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonning yetakchi olimlari tomonidan OZM ionlarini aniqlash uchun optik va atom-absorbsion spektrometriyasi, induktiv bog‘langan plazmali emissiyon spektrometriyasi, induktiv bog‘langan plazmali mass-spektrometriyasi, suyuqlik xromatografiyasi kabi zamonaviy nazorat usullari ishlab chiqilmoqda. Lekin, ushbu usullar qimmat va murakkab asbob-uskunalarni talab qiladi, shuningdek yangi organik reagentlardan foydalanib, spektrofotometrik aniqlash usullarini ishlab chiqish va atrof-muhit obyektlarini tahliliga qo‘llanilishi bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi. Mazkur aniqlash usulini texnogen obyektlar, sanoat chiqindilari, rudalar, qotishmalar, oziq-ovqat mahsulotlari, biologik namunalari va farmatsevtik preparatlarning tarkibini aniqlashda qo‘llanilishi muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda atrof-muhit obyektlari tarkibidan OZM ionlarini aniqlash hamda ekologik ekotoksikantlarni monitoring qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, natijada muayyan yutuqlarga erishilib sezgirliги yuqori va tannarxi arzon bo‘lgan spektrofotometrik aniqlash usullari ishlab chiqilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi «2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» gi PF-5863-son Farmonida «Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, atrof-muhit obyektlarini (atmosfera havosi, suv, yer, tuproq, bioxilma-xillik, qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar) antropogen ta‘sir hamda boshqa salbiy ta‘sir qiluvchi omillardan saqlash va sifatini ta‘minlash¹ kabi ustuvor vazifalar beliglangan bo‘lib, ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, sanoatlashgan hududlarni OZM ionlari bilan ifloslanishini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada, Respublikamizda Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn va Hg(II) ionlari kabi OZM ionlarining kimyo, aviasiya, tibbiyot, xalq xo‘jaligi sanoatlarida keng qo‘llanilganligi sababli, ularni aniqlashning zamonaviy, ishonchli, ekspress va iqtisodiy jihatdan arzon uslublarini ishlab chiqish va takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» gi, PF-60-sonli farmoni va 2019 yil 3 apreldagi «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investisiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30-oktabrdagi «2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» gi PF-5863-son Farmoni.

PQ-4265-sonli Qarori ijrosini ta'minlashda hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². Bugungi kunda atrof-muhit obyektlaridan turli xil tabiatli organik analitik reagentlar (OAR) bilan OZM ionlarini tahlil qilishning universal spektrofotometrik usullarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida olib borilmoqda, jumladan, Mohanlal Sukhadia University, National Institutes of Technology (Hindiston), University of Warsaw (Polsha), University of Malaga (Ispaniya), Burapha University (Tailand), Ebonyi State University (Nigeriya), Karatekin University, Gazi University, Istanbul Technical University, Ahi Evran University (Turkiya), University of Karbala (Iroq), Baku State University, Azerbaijan State Pedagogical University (Ozarbayjon), Moskva davlat universiteti, Ural federal universiteti, Perm davlat milliy tadqiqot universiteti (Rossiya), Eurasian national university (Qozog'iston), Xarkov milliy universiteti (Ukraina), O'zbekiston Milliy universiteti, Termiz davlat universiteti, Samarqand davlat universitetlarida (O'zbekiston).

Jahonda OZM ning mikromiqdorlarini aniqlashga doir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilib, quyidagi ilmiy natijalar olingan: oqova suvlar va rudalardagi OZM ning mikromiqdorlarini aniqlash uchun elektrogravimetrik usuli ishlab chiqilgan (Hindiston, Rossiya, O'zbekiston), OZM ning mikromiqdorlarini potensimetrik titrlash usuli yaratilgan (Ispaniya, Nigeriya, O'zbekiston), temir, kobalt, nikel, mis, rux va simob ionlari oqova va tabiiy suvlar, dorilar, rudalar, qotishmalar, mevalar, oziq-ovqat va turli metallar saqlagan materiallar tarkibidan ekspress-spektrofotometrik usuli bilan aniqlangan (Hindiston, Polsha, Tailand, Nigeriya, AQSH, Turkiya, Ozarbayjon, O'zbekiston) AES-ISP, induktiv-bog'langan plazmali mass-spektroskopiya, atom-absorbsion spektroskopiya usullari yordamida mineral-lar, rudalar va qotishmalar tarkibidan OZM mikromiqdorlari aniqlangan (Ukraina, Qozog'iston, Iroq), standart namunalari tarkibidan OZM larini aniqlashning rentgenofluoressent usullari yaratilgan (Ukraina), rudalarning element tarkibini emission aniqlash usuli ishlab chiqilgan (AQSh, Rossiya, Ukraina), indikatorli elektrodlar yuzasida OZM ionlarini sorbsiyalashga asoslangan anodli inversion voltmetriya yordamida elektrokimyoviy tahlil usuli yaratilgan (Ukraina, O'zbekiston), oqova va tabiiy suvlar, qotishmalar va turdosh metallardan OZM larni aniqlashning sorbsion-spektroskopik usullari ishlab chiqilgan (Uzbekistan).

Dunyoda atrof-muhit obyektlaridan OZM ionlarini fizik-kimyoviy aniqlash usullaridan samarali foydalanishni oshirish maqsadida bir qator ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan, OZM ionlarini oqova va tabiiy suvlar, dorilar, rudalar, qotishmalar, mevalar, oziq-ovqat mahsulotlari va o'simlik namunalari tarkibidan aniqlashning yanada ishonchli, tezkor va arzon usullarini kimyoviy va boshqa fizik-kimyoviy usullar bilan solishtirish,

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://www.sciencedirect.com>, <https://www.sci-hub.wf>, <https://scholar.google.com>, <https://www.mendeley.com>, <https://elibrary.ru>, <https://www.dissercat.com> va boshqa manbaalar asosida tayyorlangan.

metallkomplekslarni hosil qilish mexanizmini oʻrnatish, OZM ionlari miqdorini nazorat va monitoring qilish, shuningdek, bir qator ekologik muammolarni hal qilishga doir tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Atrof-muhit obyektlaridan Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn va Hg(II) ionlarini aniqlash boʻyicha dunyo miqyosidagi olimlar turli tadqiqotlar bilan shugʻullanib kelganlar va hozirda ham shugʻullanmoqdalar. Ular tomonidan aniqlashning fizik va fizik-kimyoviy uslublari ishlab chiqilgan, lekin taklif qilingan asboblarning murakkab tuzilganligi va qimmatligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ushbu metall ionlarini atrof-muhit obyektlari tarkibidan spektrofotometrik aniqlashning hozirda mavjud barcha talablarga javob beruvchi, yanada takomillashgan arzon va tezkor usullari ishlab chiqilishi zarur hisoblanadi.

Xorijda ushbu ilmiy yoʻnalishda quyidagi mualliflarning ishlariga eng koʻp havolalar berilgan: A.K.Goswami, F.Nworie, I.Elqailani, A.S.Gul, G.A.Shar, F.H. Alaa, N.N.Pavel, E.G.Vergara, M.S.Jeoung, Al-Daʼamy, R.S.Lokhande, I.Jibran, M.H.Youcef, H.S.Choi, S.M.Yassen, S.Z.Mohammadi, Y.Liu, Y.Bazel, R.A. Nalawade va boshqalarni keltirib oʻtish mumkin. MDH mamlakatlarining bir qator olimlari: Yu.A.Zolotov, R.A.Aliyeva, V.Ivanov, A.N.Vernigora, S.A.Zabolotnix, A.V.Bulatov, Yu.B.Yelchisheva, S.B.Savvin, N.A.Gavrilenko, I.F.Dolmanova, O. A.Shpigun, T.Sh.Shexovsova, N.A.Verdzade, F.M.Chiragov, L.A.Sarafanova, S.G. Dmitriyenko va bosh. turli xil element ionlarini atrof-muhit obyektlaridan yangi aniqlash usullarini yaratilishining rivojlantirilishiga oʻzlarining hissalarini qoʻshganlar.

Ularning safidan zamonaviy oʻzbek olimlari ham keng oʻrin olgan, ayniqsa, Oʻzbekistonda analitik kimyo maktabining asoschisi akademik Sh.T.Tolipov tomonidan Respublika va Oʻrta Osiyoda analitiklar maktabi yaratildi, shuningdek akademik Sh.T.Tolipovning shogirdlari oʻz ishlarini atrof-muhit obyektlari tarkibidan OZMlarni aniqlashda optik analiz usullariga, fotometrik, spektrofotometrik, kolorimetrik, sorbsion-spektroskopik va boshqa analiz usullariga bagʻishlanganlar. Oʻzbekiston olimlari: V.A.Xadeyev, A.K.Jdanov, R.X.Djiyanbayeva, N.B.Babayev, T.Q.Xamraqulov, A.M.Gevorgyan, Ye.L.Krukovskaya, K.Z.Raxmatullayev, A.T. Toshxoʻjayev, L.V.Chaprasova, I.P.Shesterova, Ch.I.Ibragimov, O.F. Fayzullayev, N.T.Turabov, A.M.Nasimov, E.Abduraxmanov, X.X.Turayev, Z.A. Smanova, N.X. Qutlimurotova va boshqalar shu yoʻnalishning bevosita rivojlanishi bilan bogʻliq aniqlashlarni amalga oshirishgan. Ammo, naftalin asosidagi yangi OARlardan foydalanib Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn va Hg(II) ionlarini spektrofotometrik aniqlash uchun, ekologik va analitik tahlillarda tadqiqotlar, amaliyotda yetarlicha oʻrganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Oʻzbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining FZ-20171024243 «Kobalt va temir ionlarini aniqlashda azoreagentlarning fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq etish» (2018-2019 yy.), FZ-201908098 «Kaolinlarni temir oksidlaridan tozalash» (2020-2022 yy.) mavzularidagi fundamental va amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi atrof-muhit obyektlaridan naftalin asosidagi sezgir va tanlab taʼsir etuvchan yangi organik reagentlar bilan Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn va Hg(II) ionlarini spektrofotometrik aniqlash uslublarini ishlab chiqish va monitoring qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

atrof-muhit obyektlaridan Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn va Hg(II) ionlarini mikromiqdorlarini aniqlash uchun yangi OAR: 5-gidroksi-6-nitrozonaftalin-2-sulfokislota (HR¹), 4-gidroksi-3-nitrozonaftalin-1-sulfokislota (HR²), 4,5-digidroksi-3,6-dinitrozonaftalin-2,7-disulfokislota (HR³) va 4-amino-5-gidroksi-6-[(5-metil-2-piridilazo)]-3-sulfonaftalin-1-sulfokislota natriyli tuzlaridan (HR⁴) foydalanib turli komplekslarning hosil bo'lish sharoitlarini optimallashtirish va ularning o'zaro ta'sir qonuniyatlarini aniqlash;

HR¹, HR², HR³, HR⁴ reagentlari va ularning Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn, Hg(II) ionlari bilan hosil qilgan komplekslarining analitik va metrologik tavsiflarini yaxshilash, kompleks birikmalarning spektral tavsiflari, haqiqiy molyar so'ndirish koeffitsiyenti, tarkibi va mollar nisbatlarini aniqlash hamda matematik dasturlar yordamida muvozanat, beqarorlik va barqarorlik konstantalarini hisoblash;

darajalangan grafik tenglamalarini hisoblash va tekshirilayotgan analitik reaksiyalarning selektivligini turli xil begona ionlar ishtirokida tekshirish, ishlab chiqilgan uslublarni to'g'riligi va qayta tiklanuvchanligini aniqlash, ionlarni quyi aniqlanish chegaralarini o'rnatish hamda olingan natijalarni metrologik baholash;

turli atrof-muhit obyektlari: tuproq, suvlar, oziq-ovqat mahsulotlari, o'simlik va dorivor mahsulotlar, qotishmalar va rudalarda OZMni aniqlashning yangi selektiv spektrofotometrik usullarini ishlab chiqish;

sanoat ishlab chiqarish korxonalaridan chiqayotgan oqova suvlar, buloqlar va chiqindilarni atrof-muhit obyektlariga berayotgan ta'sirlarini monitoring qilish;

ishlab chiqilgan uslublarni O'zbekistondagi ishlab chiqarish korxonalarining laboratoriya sharoitlarida sinovdan o'tkazish va atrof-muhit obyektlari tarkibidan Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn va Hg(II) ionlarini aniqlashning yangi optik uslublarini ishlab chiqish hamda ularni turli murakkab obyektlar va materiallar analizining ratsional yechimlarini izlashda qo'llash.

Tadqiqot obyekti sifatida atrof-muhit obyektlari, sanoat qotishmalari, sut mahsulotlari, tabiiy, chiqindi, kanalizatsiya suvlari va rudalar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti sifatida Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn, Hg(II) ionlari va organik reagentlar HR¹, HR², HR³, HR⁴, shuningdek, atrof-muhit obyektlarining yuqori zaharli komponentlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari sifatida spektrofotometrik, induktiv bog'langan plazma mass-spektrometriyasi, potensiommetrik, IQ-, Raman spektroskopiyasi, kvant-kimyoviy va olingan natijalarni statistik qayta hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

naftalin asosidagi yangi organik reagentlar bilan suvli muhitda Fe³⁺, Co²⁺, Ni²⁺, Cu²⁺, Zn²⁺ va Hg²⁺ ionlarini spektrofotometrik aniqlash sharoitlarini optimallashtirish qonuniyatlari: Fe³⁺ va Co²⁺ ionlarini HR¹ bilan, Co²⁺, Cu²⁺ va Hg²⁺ ionlarini HR² bilan kuchsiz kislotali; Cu²⁺ ionini HR¹ bilan, Zn²⁺ ionini HR³ bilan neytral; Ni²⁺ va Cu²⁺ ionlarini HR³ bilan kuchsiz ishqoriy muhitlarda aniqlangan; Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysinishi 0,5-55,0 mkg oraliqlarida; nur yutish maksimumlarining batoxrom va gipsoxrom siljishlari $\Delta\lambda=60-230$ nm gacha hamda Sendel bo'yicha sezgirliklari 0,0031-0,0170 mkg/sm² oraliqlarda ekanligi topilgan;

ilk bor yangi selektiv organik reagentlarning elektron nur yutilishini egrilari turli xil pH muhitlarga HR¹ uchun 424-495 nm, HR² uchun 408-455 nm, HR³ uchun

440-540 nm va HR^4 uchun 500-535 nm sohadagi nur yutilish maksimumlari bitta simmetrik holatda ekanligini, Komar usuli bilan molyar soʻndirish koeffitsienti va dissosilanish konstantalari mos ravishda HR^1 uchun $\varepsilon=695,70$ va $K_d=3,40 \cdot 10^{-7}$ ($pK=6,47$) ga, HR^2 uchun $\varepsilon = 934,64$ va $K_d=3,28 \cdot 10^{-6}$ ($pK=5,48$), HR^3 uchun $\varepsilon=549$ va $K_d=3,38 \cdot 10^{-7}$ ($pK=6,47$) ga tengligi isbotlangan;

naftalin asosidagi yangi organik reagentlar bilan Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn va Hg(II) ionlarini hosil qilgan komplekslarining haqiqiy molyar soʻndirish koeffitsientlarini organik reagentlarga nisbatan batoxrom siljishlarini mezonlari shakllantirilgan: $\varepsilon(CoR^1_2) = 40000 < \varepsilon(CuR^1_2) = 61350$; $\varepsilon(CoR^2_2) = 19531 < \varepsilon(CuR^2_2) = 20000 < \varepsilon(HgR^2_2) = 23530$; $\varepsilon(NiR^3_2) = 23585 < \varepsilon(ZnR^3_2) = 28571 < \varepsilon(CuR^3_2) = 42608$ va ushbu mezonlarning komplekslarni barqarorlik konstantalari bilan oʻzaro bogʻliqligi $\beta(CoR^1_2) = 1,25 \cdot 10^{19}$ ($lg\beta=19,10$) $< \beta(CuR^1_2) < 1,36 \cdot 10^{20}$ ($lg\beta = 20,13$); $\beta(CoR^2_2)=4,15 \cdot 10^{19}$ ($lg\beta=19,62$) $< \beta(CuR^2_2)=5,71 \cdot 10^{20}$ ($lg\beta=20,75$) $< \beta(HgR^2_2) = 6,49 \cdot 10^{21}$ ($lg\beta=21,81$); $\beta(NiR^3_2) = 8,85 \cdot 10^{22}$ ($lg\beta= 23,00$) $< \beta(ZnR^3_2)=2,86 \cdot 10^{23}$ ($lg\beta=23,46$) $< \beta(CuR^3_2) = 1,63 \cdot 10^{24}$ ($lg\beta=24,21$); $\beta(ZnR^4_2) = 2,97 \cdot 10^{17}$ ($lg\beta=17,47$) $< \beta(CuR^4_2) = 1,44 \cdot 10^{21}$ ($lg\beta=21,16$) $< \beta(HgR^4_2) = 1,18 \cdot 10^{22}$ ($lg\beta=22,07$) ketma-ketligida ortib borishi aniqlanib, $Co < Ni < Zn < Cu < Hg$ qatorida xelat hosil boʻlish qonuniyatiga mos kelishi tasdiqlangan;

ishlab chiqilgan uslublar yordamida Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn, Hg(II) ionlarini quyi aniqlanish chegaralari $mkg/25,0 \text{ sm}^3$ da: FeR^1_3 uchun 0,1120; CoR^1_2 uchun 0,3094; CuR^1_2 uchun 0,0492; CoR^2_2 uchun 0,6714; CuR^2_2 uchun 0,2860; HgR^2_2 uchun 0,6200; NiR^3_2 uchun 0,6004; CuR^3_2 uchun 0,2390; ZnR^3_2 uchun 0,1220; CuR^4_2 uchun 0,2338; ZnR^4_2 uchun 0,1746 va HgR^4_2 uchun 0,7618 ga teng ekanligi aniqlangan va yuqori sezgirlikga ega ekanligi isbotlangan;

ekologik yechimlarning yangiligi sifatida, atrof-muhit obyektlarini tahlil qilishda naftalin asosidagi yangi organik analitik reagentlar yordamida OZM ionlarini spektrofotometrik aniqlash usulining ilmiy asoslari ishlab chiqilgan hamda buloqlar, daryo suvlari, tuproqlar va oqova suvlarining tarkibi monitoring qilingan;

atrof-muhit obyektlari tarkibidan Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn va Hg(II) ionlarini aniqlash uslublarini tabiiy suvlar, standart namunalarda, rudalar va ashyoviy dalillar analiziga qoʻllanilib olingan natijalarda nisbiy standart chetlanish $S_r=0,1150$ dan oshmagan, boshqa alternativ DavST usullari bilan solishtirilgan, natijalarning toʻgʻriligi, sistematik xatoliklar yoʻqligi Styudent mezonlari bilan analitik va metrologik tavsiflarini yuqoriligi tasdiqlangan;

atrof-muhit obyektlaridan OZM ionlarini aniqlashning spektrofotometrik usullari ishlab chiqilgan, Toshkent viloyatidagi sanoat korxonalarida hududidagi sugʻoriladigan tuproqlari tarkibidagi OZM ionlarining miqdori aniqlanib, monitoringi oʻtkazilgan, «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ hududida Zn^{2+} , Cu^{2+} , Pb^{2+} , Sb^{3+} , As^{3+} , Cd^{2+} ; «Angren issiqlik elektr stansiyasi» AJ hududida Cu^{2+} , Zn^{2+} , Ni^{2+} , Pb^{2+} , As^{3+} , W^{6+} ; «Oʻzbekiston metallurgiya kombinati» AJ hududida Zn^{2+} , Ni^{2+} , Pb^{2+} , As^{3+} ; «Ammofos-Maksam» AJ hududida Cd^{2+} , Zn^{2+} , Cu^{2+} , Pb^{2+} , Sb^{2+} , As^{3+} ; «Angren neft bazasi» AJ hududida Zn^{2+} , Ni^{2+} , As^{3+} ; «Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi» AJ hududida Zn^{2+} , Ni^{2+} , Pb^{2+} , As^{3+} , V^{3+} hamda «Bekobodsement» AJ hududida Cu^{2+} , Pb^{2+} , As^{3+} kabi zaharli ionlar bilan 50 sm chuqurlikgacha REM dan ortganligi va ushbu hududlardagi yer-usti suvlarida K^+ , F^- , Na^+ , Cu^{2+} , Ni^{2+} va Pb^{2+} ionlarini REM dan oshganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aniqlangan qonuniyatlar asosida Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn, Hg(II) ionlarini binar va murakkab aralashmalar, sanoat namunalari, tabiiy suvlar, minerallar va boshqa atrof-muhit obyektlari tarkibidan HR¹, HR², HR³ va HR⁴ reagentlari bilan aniqlashning iqtisodiy jihatdan arzon, tezkor, sezgir, selektiv uslubalari ishlab chiqilgan, shuningdek sanoat korxonalarini atrofidagi tuproq va yer-usti suvlari hamda buloqlar tarkibidagi OZM ionlari monitoring qilingan;

ishlab chiqilgan uslublarning optimal sharoitlari: muhitning kislotaligi va Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn, Hg(II) ionlari va HR¹, HR², HR³, HR⁴ reagentlarining konsentratsiyasi, turli bufer aralashmalarining tarkibi, elektron yutilish spektrlari, mollar nisbatlari va boshqa fizik-kimyoviy tavsiflari aniqlangan;

Fe³⁺, Co²⁺, Cu²⁺ ni HR¹ bilan, Co²⁺, Cu²⁺, Hg²⁺ ni HR² bilan, Ni²⁺, Cu²⁺, Zn²⁺ ni HR³ bilan, Cu²⁺, Zn²⁺, Hg²⁺ ni HR⁴ bilan binar, sun'iy aralashma va murakkab namunalarda, real atrof-muhit obyektlari hamda sanoat qotishmalari tarkibidan ekologik xavfsiz selektiv spektrofotometrik aniqlash uslublari yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi spektrofotometriya, potensimetriya, induktiv bog'langan plazmali mass-spektrometriyasi, kvant kimyoviy hisob-kitoblari, IQ-, ¹H-YMR hamda Raman spektroskopiyasi kabi zamonaviy fizik-kimyoviy usullar bilan isbotlangan. Tajriba natijalari asosida tahlil qilingan xulosalar matematik statistika usullari bilan qayta ishlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Fe³⁺, Co²⁺, Ni²⁺, Cu²⁺, Zn²⁺ va Hg²⁺ ionlarini atrof-muhit obyektlaridan aniqlashni ta'minlaydigan keng sohadagi pH va konsentratsiya oralig'i, haqiqiy molyar so'ndirish koeffitsienti (ϵ), Sendel bo'yicha sezgirliги, reaksiya kontrastligini tavsiflovchi $\Delta\lambda$ farqi, muvozanat va barqarorlik (β_k) konstatntalari kabi spektrofotometrik aniqlash qonuniyatlarini o'rnatilganligi yangi spektrofotometrik aniqlash uslublari taklif qilingani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan yangi ekologik xavfsiz, selektiv spektrofotometrik uslublarini atrof-muhit obyektlaridan Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn, Hg(II) ionlarini ruxsat etilgan miqdorgacha va undan ancha kichik bo'lgan konsentratsiyalarni individual eritmalaridan, sun'iy, binar, tabiiy suv, sanoat qotishmalari va murakkab aralashmalardan aniqlashga imkon beradi, bu esa ushbu OZM ionlarining aniq miqdorini turli xil atrof-muhit obyektlaridan aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Atrof-muhit obyektlaridan Fe(III), Co(II), Cu(II) ni HR¹ bilan, Co(II), Cu(II), Hg(II) ni HR² bilan, Ni(II), Cu(II), Zn ni HR³ bilan, shuningdek Cu(II), Zn, Hg(II) ni HR⁴ bilan spektrofotometrik aniqlash uslublarini ishlab chiqishda olingan ilmiy natijalar asosida:

naftol-6-sulfokislota hosilasini olish usuliga O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan foydali modelga patent olingan (№ 9(282). FAP 2564, 16. 08. 2024 y.) Natijada 5-gidroksi-6-nitrozonaftalin-2-sulfokislota OAR sifatida Co²⁺, Ni²⁺, Cu²⁺ va Fe³⁺ ionlarini suvli muhitda aniqlash imkonini bergan;

kanalizatsiya suvi, tabiiy suv, oqava suvlar, ichimlik suvlarda Fe(III) va Cu(II) ionlarini aniqlashning spektrofotometrik usuli Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining «Qoraqalpoq suv ta'minoti» AJ laboratoriyasining amaliyotida

sinovdan o'tkazildi (Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil 04-sentabrdagi 01/18-2-2885-son ma'lumotnomasi). Natijada Fe(III) va Cu(II) ionlarini aniqlashda spektrofotometrik usullarda qo'llaniladigan import qilingan reagentlar o'rnini bosuvchi HR¹, HR², HR³ reagentlarini amaliyotda qo'llash imkonini bergan;

Fe(III), Co(II) va Zn ionlarini HR¹, HR², HR³ bilan ishlab chiqilgan spektrofotometrik aniqlash uslublari «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasida ichimlik va oqova suvlari tarkibidan Fe(III), Co(II) va Zn ionlarini aniqlash uchun joriy qilingan (Navoiy kon-metallurgiya kombinati AJning 2024-yil 28-maydagi 23/01-01-07/248-son ma'lumotnomasi). Natijada ichimlik va oqova suvlarni tahlil qilish laboratoriyasida Fe(III) Co(II), Zn ionlarini iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilishda me'yoriy-texnik hujjatlarda ko'rsatilgan mezonlar asosida aniqlash muhimligi ta'kidlangan va aniqlash samaradorligini 1,0-1,2 barobar oshirish imkonini bergan;

spektrofotometrik usuli yordamida Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn va Hg(II) ionlarini aniqlash uslublari «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ Markaziy zavod laboratoriyasiga joriy etilgan («Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJning 2024-yil 06-fevraldagi 12.02-01/193-son ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan uslublar sintez qilingan organik reagentlar yordamida Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn va Hg(II) ionlarini oqava suvlar tarkibidan aniqlash imkonini bergan;

Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II) va Zn ionlarini spektrofotometrik aniqlash uslublari «Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi» MChJ ning «Kimyo-bakteriologiya» laboratoriyasi amaliyotiga xo'jalik ichimlik suvi analiziga metall ionlarini aniqlash amaliyotiga qo'llanilgan («Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi» MChJ ning 2024-yil 25-martdagi 003/1472-son ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan uslublar Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II) va Zn ionlarini mikromiqdorini aniqlashda selektivlikni, sezgirlikni, ekspresslikni va aniqlikni oshirish imkonini bergan;

yangi HR¹, HR², HR³ reagentlari yordamida sanoat oqava suv namunalaridan Fe(III), Ni(II) va Cu(II) ionlarining mikromiqdorini aniqlash usuli «PENG-SHENG» MChJ O'zbekiston-Xitoy qo'shma korxonasining analitik laboratoriyasi ishlab chiqarish sexlaridan oqib chiqadigan oqova suvlar tarkibidagi Fe(III), Ni(II) va Cu(II) ionlarini aniqlash amaliyotiga joriy qilingan («PENG-SHENG» MChJ O'zbekiston-Xitoy qo'shma korxonasining 2024-yil 02-fevraldagi 14-son ma'lumotnomasi). Natija oqava suvlarda temir(III), nikel (II) va mis (II) ionlarini aniqlash samaradorligini 5-8% ga oshirish imkonini bergan;

4-gidroksi-3-nitrozonaftalin-1-sulfokislota bilan Hg(II) ionlarini aniqlash uslubi O'zbekiston Respublikasining Ekspert-kriminalistika Bosh Markazining «Fizik-kimyoviy va texnik ekspertizasi» bo'limining maxsus laboratoriyasida ashyoviy dalillar tarkibidagi simob(II) ionlarini aniqlash uchun joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika Bosh Markazining 2024-yil 26-martdagi 21/2-257-son ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan Hg(II) ionini 4-gidroksi-3-nitrozonaftalin-1-sulfokislota bilan aniqlash uslubi real obyektlarda analizni oson bajarilishini va uslubning sezgirlikni oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 18 ta, jumladan 9 ta xalqaro va 9 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 35 ta ilmiy ish, shulardan 1 ta foydali model patenti olingan, 1 ta monografiya chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta ilmiy maqola, jumladan 11 ta Respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 200 betni tashkil etadi^{3*}.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, uning Respublika fan va texnologiyalari rivojlantirilishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhini tanqidiy tahlili keltirilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi hamda tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti va usullari belgilangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, amaliyotga joriy qilish istiqboli borasida xulosalar chiqarilgan hamda chop etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Atrof-muhit obyektlarida ayrim og'ir va zaharli metall ionlarini aniqlash uchun spektroskopik usullarni tanlashning nazariy asoslari (Adabiyotlar sharhi)**» deb nomlangan birinchi bobida adabiyotlar sharhlari keltirilgan bo'lib, unda temir(III), kobalt(II), nikel(II), mis(II), rux va simob(II) ionlarini suvli muhitlarda har xil xususiyatga ega bo'lgan turli reagentlar yordamida optik va boshqa usullar bilan aniqlashga bag'ishlangan xorijiy va Respublika nashrlarida keltirilgan ilmiy ishlar bayon etilgan. Analitik kimyoda OAR larni qo'llanilishi tobora ko'payib bormoqda. Ular sezilarli kimyoviy faolligi bilan ajralib turadi va turli xil metall ionlari bilan ta'sirlashib rangli yoki rangsiz birikmalar hosil qiladi. Ularning o'ziga xosligi, ma'lum pH oralig'ida ayrim element guruhlari bilan reaksiyaga kirishish xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Reaksiyalarning yuqori sezgirligi hisobiga OAR lar yetarli darajada aniqlik bilan kichik miqdordagi metall ionlarini aniqlash imkonini beradi, shu bilan birga ba'zi hollarda bir elementni boshqalarining mavjudligida dastlabki ajratishlarsiz aniqlash imkoni mavjuddir. Adabiyotlardagi ma'lumotlarning tahlili ushbu ishning tadqiqot obykti, vazifalari va maqsadini tanlashga imkon yaratgan.


Dissertatsiyaning «**Atrof-muhit obyektlaridan Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn va Hg(II) ionlarini HR¹, HR², HR³ va HR⁴ reagentlari bilan aniqlash uchun kompleks hosil qilish sharoitlarini optimallashtirish (Tajriba qism)**» deb nomlangan ikkinchi bobida ishchi va standart eritmalarini tayyorlash usullari keltirilgan, eritma muhitning pH qiymatiga bog'liqligiga asoslanib reagentlarning elektron yutilish spektrlari spektrofotometrik usulida aniqlangan,

^{3*} Muallif professor N.T.Turabovga, ilmiy ish mavzusi bo'yicha adabiyot ma'lumotlarini tahlil qilish, ilmiy maqolalarni yozishda va mavzuni tanlashda, tajribalarni o'tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirishda bergan beminnat yordamlari uchun minnatdorlik bildiradi.


ayrim metall ionlarini HR^1 , HR^2 , HR^3 va HR^4 reagentlari bilan sifat reaksiyalari o'tkazilgan, Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn va Hg(II) ionlarini yuqoridagi tanlangan reagentlar bilan atrof-muhit obyektlaridan aniqlash uchun kompleks hosil qilish reaksiyalarining optimal sharoitlari, Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysinishi, elektron yutilish spektrlari va Sendel bo'yicha sezgirliklari o'rnatilgan.

HR^1 , HR^2 , HR^3 va HR^4 reagentlarning eritmadagi holatini aniqlash uchun elektron yutilish spektrlarini (EYS) turli xil pH muhitlarga bog'liqligi tekshirildi. HR^1 , HR^2 va HR^3 larning EYS V.N.Karazin nomidagi Xarkov milliy universiteti-ning kimyo fakulteti «Kimyoviy metrologiya» kafedrasini Komar laboratoriyasida bajarilgan. Olingan natijalardan shunday xulosa qilindiki (1 va 2 rasmlar), HR^1 reagenti pH ning 1,68-3,00 oralig'ida 424-445 nm sohalarda, pH ning 3,0-4,0 oralig'ida 430-450 nm sohalarda, pH ning 4,0-6,5 oralig'ida 430-460 sohalarda, pH ning 6,5-7,5 oralig'ida 440-470 sohalarda, pH ning 7,5-9,0 oralig'ida 460-480 sohalarda, pH ning 9,0-13,0 oralig'ida 470-495 sohalarda, HR^2 reagenti pH ning 2,27-6,60 oralig'ida 408-430 nm sohalarda, pH ning 6,7-7,30 oralig'ida 420-440 nm sohalarda, pH ning 7,30-13,20 oralig'ida 430-455 sohalarda, HR^3 reagenti esa pH ning 1,68-2,80 oralig'ida 440-470 nm sohalarda, pH ning 3,0-4,80 oralig'ida 450-470 nm sohalarda, pH ning 5,0-6,75 oralig'ida 450-480 sohalarda, pH ning 6,80-7,00 oralig'ida 480-540 nm sohalarda, pH ning 7,25-13,05 oralig'ida 510-540 nm sohalarda maksimum nur yutilishini ko'rsatdi. Spektrofotometrik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu tadqiqot ishida OAR sifatida qo'llanilgan HR^1 reagenti 424-495 nm sohalarda, HR^2 reagenti 408-455 nm sohalarda (1-rasm), HR^3 reagenti 440-540 nm sohalarda (2-rasm) va HR^4 500-535 nm sohalarda maksimum elektron nur yutilishlarining egrilari simmetrik holatda ekanligini tasdiqladi.

Tadqiqot davomida eritma muhitning optimal pH qiymatini aniqlash uchun turli xil pH qiymatli bufer eritmalari analitik kimyodan ma'lumotnoma va ishlab chiqilgan meyoriy hijjatlardan: GOST 4919.2-2016, GOST 4919.2-77 va GOST 8.135-2004 foydalanib tayyorlangan.



1-rasm. HR^2 ning turli pH dagi EYS




2-rasm. HR^3 ning turli pH dagi EYS

Olingan natijalarga asoslanib Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn, Hg(II) ionlari va HR^1 , HR^2 , HR^3 , HR^4 reagentlarining doimiy konsentratsiyasida komplekslar eritmalarining optik zichligini (OZ) eritma pH ga bog'liqligi o'rganilib, grafik tuzildi. Kompleksning OZ eritmalarning pH-i ortishi bilan o'zgarib boradi,


komplekslarning maksimal OZ HR¹ bilan Fe³⁺ kompleksi uchun pH=4,2-5,0; Co²⁺ kompleksi uchun pH=4,0-7,0 va Cu²⁺ kompleksi uchun pH=6,8-7,4 oralig'ida; HR² bilan Co²⁺ kompleksi uchun pH=5,5-10,0; Cu²⁺ kompleksi uchun pH=5,5-8,2 va Hg²⁺ kompleksi uchun pH=4,8-6,4 oralig'ida va HR³ bilan Ni²⁺ kompleksi uchun pH=9,0-9,4; Cu²⁺ kompleksi uchun pH=7,2-8,5 va Zn²⁺ kompleksi uchun pH=6,5-7,0 oraliqlarida kuzatilgan.

Olingan natijalarga asosan optimal pH sifatida HR¹ bilan Fe³⁺ kompleksi uchun pH=4,52; Co²⁺ kompleksi uchun pH=5,10 va Cu²⁺ kompleksi uchun pH=7,10; HR² bilan Co²⁺ kompleksi uchun pH=6,4; Cu²⁺ kompleksi uchun pH=6,5 va Hg²⁺ kompleksi uchun pH=5,8; HR³ bilan Ni²⁺ kompleksi uchun pH=9,15; Cu²⁺ kompleksi uchun pH=8,0 va Zn²⁺ kompleksi uchun pH=6,73 va HR⁴ bilan Cu²⁺ kompleksi uchun pH=3,98; Zn²⁺ kompleksi uchun pH=6,45 va Hg²⁺ kompleksi uchun pH=8,58 tanlangan.

Metallarning to'liq kompleksga bog'lanishini ta'minlash maqsadida reagentning optimal miqdorini aniqlash uchun Fe³⁺, Co²⁺, Ni²⁺, Cu²⁺, Zn²⁺, Hg²⁺ ionlari konsentratsiyasini o'zgarmas holda HR¹, HR², HR³, HR⁴ reagentlarning miqdori oshirilib bir nechta tajribalar o'tkazildi. 50,0 mkg Fe³⁺, Co²⁺ va Cu²⁺ miqdorlarini kompleksga to'liq o'tkazish uchun 0,1 % li HR¹ eritmasidan Fe³⁺ ionlari uchun 2,5 cm³ va 0,05 % li HR¹ eritmasidan Co²⁺ ionlari uchun 1,25 cm³, Cu²⁺ ionlari uchun 1,5 cm³ yetarli (3-Rasm), 30 mkg Co²⁺ ionlari uchun 1,1 sm³, 40 mkg Cu²⁺ ionlari uchun 1,0 sm³ 0,05% li HR² eritmasi va 50 mkg Hg²⁺ uchun 1,60 sm³ 0,10% HR² eritmasi yetarli, 50 mkg Ni²⁺, Cu²⁺ va Zn²⁺ ionlarini kompleksga to'liq o'tkazish uchun 1,0-1,2 sm³ 0,05% li HR³ eritmasi yetarli bo'ldi. Keyingi tadqiqot ishlarida yuqorida aniqlangan natijalardan reagentlarning optimal hajmi sifatida foydalanildi.




3-rasm. HR¹ bilan Fe³⁺, Co²⁺ va Cu²⁺ komplekslar OZining qo'shilgan reagent hajmiga bog'liqligi




4-rasm. HR² bilan Co²⁺, Cu²⁺ va Hg²⁺ komplekslar OZining qo'shilgan reagent hajmiga bog'liqligi

FeR¹₃, CoR¹₂, CuR¹₂, CoR²₂, CuR²₂, HgR²₂, NiR³₂, CuR³₂, ZnR³₂, CuR⁴₂, ZnR⁴₂, HgR⁴₂ komplekslarining yetarlicha sezgirligi, kontrastligi, vaqtga nisbatan barqarorligi, shuningdek Fe³⁺ ni HR¹ bilan Cu²⁺ ni HR⁴ bilan kuchsiz kislotali, Co²⁺ ni HR¹ bilan, Zn²⁺ ni HR³ bilan, Hg²⁺ ni HR² bilan kuchsiz kislotali va neytral; Cu²⁺ ni HR¹ bilan, Zn²⁺ ni HR⁴ bilan neytral, Co²⁺ va Cu²⁺ larni HR² bilan kuchsiz kislotali, neytral va kuchsiz ishqoriy; Ni²⁺ va Cu²⁺ larni HR³ bilan, Hg²⁺ ni HR⁴ bilan kuchsiz ishqoriy muhitlarda reaksiyalarini olib borilishi spektrofotometrik analizda

qo'llash imkonini berdi. Optimal sharoitlar asosida o'rganilayotgan metall ionlarining HR¹, HR², HR³ va HR⁴ bilan reaksiyalarini Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysinishi aniqlandi. Komplekslarning OZ va Fe³⁺, Co²⁺, Ni²⁺, Cu²⁺, Zn²⁺, Hg²⁺ ionlarini konsentratsiyasi orasidagi to'g'ri chiziqli bog'lanish 25,0 sm³ suvli eritmada HR¹ bilan Fe³⁺ uchun 2,0-48,0 mkg, Co²⁺ uchun 1,0-18,0 mkg va Cu²⁺ uchun 2,0-45,0 mkg oralig'ida (5-rasm), HR² bilan Co²⁺ uchun 1,0-30,0 mkg, Cu²⁺ uchun 1,0-42,0 mkg va Hg²⁺ uchun 2,0-50,0 mkg oralig'ida (6-rasm); HR³ bilan Ni²⁺ uchun 5,0-55,0 mkg, Cu²⁺ uchun 5,0-40,0 mkg va Zn²⁺ uchun 2,0-35,0 mkg oralig'ida va Cu²⁺ uchun 0,50-6,50 mkg, Zn²⁺ uchun 1,0-18,0 mkg va Hg²⁺ simob 1,0-40,0 mkg oralig'ida kuzatildi, bu yuqoridagi konsentratsiyalar oralig'ida Fe³⁺, Co²⁺, Ni²⁺, Cu²⁺, Zn²⁺, Hg²⁺ ionlarini miqdoriy aniqlash imkonini beradi.



5-rasm. HR¹ bilan Fe³⁺, Co²⁺ va Cu²⁺ komplekslarini Ber qonuniga bo'ysinishi




6-rasm. HR² bilan Co²⁺, Cu²⁺ va Hg²⁺ komplekslarini Ber qonuniga bo'ysinishi

Kompleks hosil bo'lishining optimal sharoitlarida turli rangli reaksiyalarining asosiy spektrofotometrik tavsiflaridan: HR¹, HR², HR³, HR⁴ reagentlari va komplekslarning maksimum nur yutilish spektrlari, reaksiya kontrastligini tavsiflovchi $\Delta\lambda$ farqi, Sendel bo'yicha usullarning sezgirliigi va boshqalar aniqlangan (1-jadval).


Dissertatsiyaning uchunchi bobi «**Reagentlarning fizik-kimyoviy xossalari va metallokomplekslarning spektrofotometrik tavsiflarini spektroskopik aniqlashning umumiy qonuniyatlari**» deb nomlangan bo'lib, unda rangli komplekslarda komponentlarning tarkibiy mollar nisbati aniqlangan, HR¹, HR², HR³, HR⁴ reagentlar va ularni Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn, Hg(II) bilan metallkomplekslarini sezgirliigi hamda turli xil konstantalari ayrim spektrofotometrik uslublarida o'rnatilgan, komplekslarni zaryadlari o'rganilgan, tanlangan reagentlar molekulasidagi atomlarining energiyalari kvant-kimyoviy hisoblangan va ularning komplekslarini tuzilishi IQ-, ¹H-YMR- va Raman- spektroskopiyasi bilan tahlil qilingan.

Fe³⁺, Co²⁺, Ni²⁺, Cu²⁺, Zn²⁺, Hg²⁺ ionlarini rangli komplekslarining HR¹, HR², HR³ va HR⁴ reagentlari bilan tarkibiy mollar nisbati izomolyar seriyalar (7-rasm), Asmusning to'g'ri chiziqlar, spektrofotometrik titrlash va muvozanatlar siljishi (Nazarenko) (8-rasm) usullari bilan aniqlandi. Eritmalarning umumiy hajmi doimiy holda ($V_M^{n+} + V_{HR}^{1-4} = \text{const}$) saqlanib metall tuzlarini eritmaları va reagentlarning izomolyar miqdorlari antibat nisbatlarda aralashtirilib reaksiyaga kirishuvchi komponentlarning nisbatlari aniqlandi. Bunda eritmaning umumiy hajmida ikkita komponentning gramm-molining umumiy miqdori doimo o'zgarmas holda

saqlandi. Natijalar HR^1 , HR^2 , HR^3 va HR^4 bilan Fe^{3+} , Co^{2+} , Ni^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} , Hg^{2+} komplekslarni tarkibi to'rtta har xil va mustaqil usullar bilan tekshirilganda ham, bir xil va $M^{n+}:HR^{1-4}=1:2$ hamda Fe^{3+} ioni HR^1 bilan 1:3 nisbatlarga tengligini ko'rsatdi.



7-rasm. Izomolyar seriyalar usuli bilan HR^1 bilan Fe^{3+} , Co^{2+} va Cu^{2+} , komplekslarini tarkibiy mollar nisbatini aniqlash



8-rasm. Muvozanatlar siljishi usuli bilan HR^3 bilan Ni^{2+} kompleksini tarkibiy mollar nisbatini aniqlash

HR^1 , HR^2 , HR^3 va HR^4 larni nur yutilishining molyar so'ndirish koeffitsiyenti (MSK) va dissosilanish konstantasi (K_{diss}) Komar uslubi bilan spektrofotometrik usulida aniqlandi. Bunda o'zgarimas konsentratsiyali reagentlarni suvli eritmasi hamda pHning turli xil qiymatlarda bo'lgan universal va boshqa bufer eritmalaridan foydalanildi. Barcha tajribalarda HR^1 , HR^2 , HR^3 va HR^4 larning konsentratsiyalari mos ravishda, $1,5796 \cdot 10^{-4}$ M, $1,5796 \cdot 10^{-4}$ M, $1,056 \cdot 10^{-4}$ M va $2,172 \cdot 10^{-5}$ M ni tashkil qildi. Tajribalardan olingan natijalarga ko'ra Komar usuli bilan reagentlarning MSK va K_{diss} lari mos ravishda HR^1 uchun 695,70 va $3,40 \cdot 10^{-7}$ ($pK=6,47$) ga, HR^2 uchun 934,64 va $3,28 \cdot 10^{-6}$ ($pK=5,48$), HR^3 uchun 549 va $3,38 \cdot 10^{-7}$ ($pK=6,47$), shuningdek HR^4 uchun 3306 va $2,95 \cdot 10^{-8}$ ($pK=7,53$) tengligi aniqlandi, bunda HR^1 , HR^2 , HR^3 , HR^4 reagentlar molekulasidagi naftol yadrosida OH^- dan H^+ ning dissosilanishi kuzatiladi. Fe^{3+} , Co^{2+} , Ni^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} , Hg^{2+} ionlari bilan HR^1 , HR^2 , HR^3 , HR^4 reagentlarini kompleks hosil bo'lish reaksiyalarida haqiqiy MSK ($\epsilon_{haq.}$) va muvozanat konstantasi ($K_{muv.}$) Tolmachyov usuli bilan aniqlandi, shuningdek komplekslarning barqarorlik konstantalari Babko usulida hisoblandi (1-jadval va 9-rasm).


1-jadval

FeR^1_3 , CoR^1_2 , CuR^1_2 , CoR^2_2 , CuR^2_2 , HgR^2_2 , NiR^3_2 , CuR^3_2 , ZnR^3_2 , CuR^4_2 , ZnR^4_2 va HgR^4_2 komplekslarini asosiy analitik tavsiflari



Kompleks tarkibi	$\lambda_{max.}, nm$		$\Delta\lambda, nm$	$\epsilon_{haq.} MR^n_m$	$S_{sezgir.}, mkg/sm^2$	$K_{muv.}$	$K_{beqar.}$	$K_{barq.} (\beta_{barq.})$	$lg\beta$
	HR^n	MR_m^n							
FeR^1_3	440	675	235	36765	0,0118	$0,27 \cdot 10^{-2}$	$4,60 \cdot 10^{-18}$	$2,17 \cdot 10^{17}$	17,34
CoR^1_2	440	550	110	40000	0,0019	$4,02 \cdot 10^{-2}$	$8,02 \cdot 10^{-20}$	$1,25 \cdot 10^{19}$	19,10
CuR^1_2	440	505	65	61350	0,0160	$8,19 \cdot 10^{-6}$	$7,35 \cdot 10^{-21}$	$1,36 \cdot 10^{20}$	20,13
CoR^2_2	410	540	130	19531	0,0049	$1,90 \cdot 10^{-4}$	$2,41 \cdot 10^{-20}$	$4,15 \cdot 10^{19}$	19,62
CuR^2_2	410	510	100	20000	0,0084	$2,63 \cdot 10^{-5}$	$1,75 \cdot 10^{-21}$	$5,71 \cdot 10^{20}$	20,75
HgR^2_2	410	475	65	23530	0,0168	$3,25 \cdot 10^{-5}$	$1,54 \cdot 10^{-22}$	$6,49 \cdot 10^{21}$	21,81
NiR^3_2	505	575	70	23585	0,0085	$1,62 \cdot 10^{-8}$	$1,13 \cdot 10^{-23}$	$8,85 \cdot 10^{22}$	23,00
CuR^3_2	505	590	85	42608	0,0183	$2,44 \cdot 10^{-7}$	$6,14 \cdot 10^{-25}$	$1,63 \cdot 10^{24}$	24,21
ZnR^3_2	535	438	97	28571	0,0170	$5,75 \cdot 10^{-3}$	$3,50 \cdot 10^{-24}$	$2,86 \cdot 10^{23}$	23,46
CuR^4_2	505	595	90	20000	0,0025	$2,73 \cdot 10^{-5}$	$6,95 \cdot 10^{-22}$	$1,44 \cdot 10^{21}$	21,16
ZnR^4_2	510	565	55	42017	0,0042	$1,26 \cdot 10^{-4}$	$3,37 \cdot 10^{-18}$	$2,97 \cdot 10^{17}$	17,47
HgR^4_2	540	645	105	52632	0,0031	$9,03 \cdot 10^{-7}$	$8,51 \cdot 10^{-23}$	$1,18 \cdot 10^{22}$	22,07

MSK va K_{barq} larni ortib borishi, shuningdek K_{muv} va K_{beq} larni kamayib borish qiymatlarini taqqoslash shuni ko'rsatadiki, o'rganilayotgan reagentlar bilan Cu^{2+} va Hg^{2+} ionlari komplekslarini sezgirligi va barqarorlik konstantalari boshqa metall ionlarini komplekslariga nisbatan yuqori bo'lishi $\text{Co} < \text{Ni} < \text{Zn} < \text{Cu} < \text{Hg}$ qatorida xelatlarining barqarorlik qonuniyatlari mos kelishi aniqlandi hamda yetarlicha barqaror ekanligi tasdiqlandi (9-rasm).

Ma'lumki, hozirgi kunda hisoblash kimyosi va molekulyar dinamika usullari molekulyar, kristall va oraliq (nano) o'lchamdagi murakkab sistemalarning elektron va atom tuzilishlarini modellashtirishda keng qo'llanilmoqda. HR^1 , HR^2 , HR^3 , HR^4 reagentlarining fazoviy tuzilishini kvant-kimyoviy aniqlash uchun Gaussian 09 dasturiy paketi doirasidagi GaussView 5.0 dasturi yordamida kirish fayllari yaratildi. Geometriyalarni optimallashtirish B3LYP/3-21G usuli yordamida amalga oshirildi (Mallikken bo'yicha atom zaryadlari) (10-rasm).



9-rasm. Babkoni suyultirish usuli bilan CoR^1_2 , CuR^1_2 , CoR^2_2 , CuR^2_2 , HgR^2_2 , NiR^3_2 , CuR^3_2 , ZnR^3_2 , CuR^4_2 , ZnR^4_2 va HgR^4_2 komplekslarining barqarorlik konstantalarini aniqlash natijalari



10-rasm. HR^3 va HR^2 molekularida B3LYP/3-21G (Gaussian 09) usulida zaryad taqsimotlari hisoblab chiqilgan. Vizualizatsiya GaussView 5.0 yordamida bajarilgan

B3LYP/3-21G (Gaussian 09) usulida HR^1 , HR^2 , HR^3 , HR^4 molekularidagi yuqori band qilingan atomlarni effektiv zaryadlarining kvant-kimyoviy hisoblash natijalarini ko'rsatishicha, Fe^{3+} , Co^{2+} , Ni^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} , Hg^{2+} komplekslarida donor-akseptor bog'lari HR^1 , HR^2 , HR^3 lar uchun nitrozo guruhidagi azot atomi orqali, HR^4 uchun esa piridin halqasining azot atomi va piridin halqasiga yaqin bo'lgan diazoguruhidagi azot atomi bilan hamda ion bog'lar naftol halqasining gidroksil guruhidagi vodorod ionlarining almashinishi hisobiga yuzaga keladi.


Birikmalarning tuzilishini identifikatsiya qilish uchun HR^1 , HR^2 , HR^3 , HR^4 lar va uning Fe^{3+} , Co^{2+} , Ni^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} , Hg^{2+} komplekslarini IQ-, Raman- va 1H -YMR spektrlari olindi. Barcha reagentlarda 2800-2500 cm^{-1} sohalarda yutilishning yo'qligi reagent molekularini monomer tuzilganligidan dalolat beradi. Taqdqiqot davomida foydalanilgan organik reagentlarning IQ spektrida quyidagi chastotalar kuzatildi: HR^1 molekulasida 3420,66 cm^{-1} (ν_{OH}); 1589,63 - 1624,96 cm^{-1} ($\nu_{C=C}$); 1055,52-1111,80 cm^{-1} ($\nu_{C-N=O}$); 1589,63 cm^{-1} ($\nu_{C=NO}$); 1624,96 cm^{-1} (ν_{oksim}); 3040-3104 cm^{-1} (ν_{aren}); 886, 766 cm^{-1} (ν_{C-H} alm.aren), HR^2 molekulasida: 3473,38 cm^{-1} (ν_{OH}); 3040,41-3104,78 cm^{-1} $\nu_{(C-O)}$; 1589,63-1624,96 cm^{-1} $\nu_{(C=C)}$; 1055,52-1123,75 cm^{-1} $\nu_{(C-N)}$; 1430,74-1624,96 cm^{-1} $\delta_{(N=O)}$; 1624,89 cm^{-1} $\nu_{(oksim)}$; 3040,41-3420,66 cm^{-1} $\nu_{(CH)}$ va HR^4 molekulasida 2868, 2942 cm^{-1} (ν_{CH_3}); 3228, 3258 cm^{-1} (ν_{OH}); 1542 cm^{-1} ($\nu_{C=C}$); 1654 cm^{-1} ($\nu_{N=N}$); 1497 cm^{-1} va 3443 cm^{-1} (ν_{NH_2}); 792 cm^{-1} (ν_{C-H} , naftalin); 3034 cm^{-1} (ν_{C-H} arom. halqa); 1405, 1366 cm^{-1} (ν_{C-H} , metil); 673 cm^{-1} (ν_{S-O}) tebranishlari aniqlandi.

Shuningdek organik reagentlarning 1H -YMR spektrlarida quyidagi proton signallari kuzatildi: HR^1 molekulasida (400 MHz, δ , D_2O , m.u. J/Gts): 7,852(H^3), 8,242(H^4), 7,672 (H^5), 7,878 (H^7), 8,253 (H^8), HR^2 molekulasida (400 MHz, δ , D_2O , m.u. J/Gts) 7 ta proton signallari kuzatildi. 1-proton 12,3 m.u. da, 2-proton 6,5 m.u. da, 3-proton 2,0 m.u. da, 4-proton 7,6 m.u. da, 5-proton 7,7 m.u. da, 6-proton 7,55 m.u. da, 7-proton esa 7,4 m.u. larda HR^3 molekulasida (600 MHz, D_2O) δ 8,16 (s, H^1), 8,04 (s, OH), 7,98 (s, H^2), 7,84 (s, H^1), 7,75 (s, H^3), 7,60 (s, H^0), 7,37 (s, H^2), 7,09 (s, H^1), 7,04 (s, H^2), 4,69 (s, H^2) signallari kuzatildi. HR^4 molekulasida 1H -YMR spektrida aromatik halqasidagi protonlardan H^3 , H^4 , H^6 δ 5,85-6,05 m.u. larda multiplet signallar, metil guruhining protonidan δ 2,24 m.u. singlet signallari namoyon bo'ldi. Kuchsiz maydon sohasida gidroksil guruhining protonidan δ 11,38 m.u. da singlet signal namoyon bo'ldi. Naftalin halqasidagi boshqa H-protonlar δ 7,08-7,11 m.u. larda dublet signallari kuzatildi.


Fe^{3+} , Co^{2+} , Ni^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} , Hg^{2+} komplekslarining IQ va Raman spektrlarida -OH guruhining valent chastotalarining yaqqol kuzatilmasligini metall ionlari naftalin halqasidagi OH⁻ guruhining kislorod orasida M-O bog'ining hosil bo'lishi bilan tushuntirish mumkin. Komplekslar tuzilishini tasdiqlaydigan oxirgi chastotalarning tahlilini quyidagicha xulosa qilish mumkin: 460-570 cm^{-1} sohalarda -O-M bog'ining valent tebranishi; 2961-2980 cm^{-1} sohalarda aromatik halqadagi -C-H bog'ining valent tebranishi; 1068-1158 cm^{-1} sohalarda aromatik halqadagi SO_3^- guruhining simmetrik va assimetrik valent tebranishlari borligini tasdiqlaydi. Komplekslarning IQ-spektrlarida asosiy o'zgarish gidroksoguruh (OH⁻) dagi valent tebranishlari sohasida yuz beradi. Reagentlar va komplekslar IQ va Raman spektridagi asosiy farq kompleks birikmalarda 460-570 cm^{-1} sohada qo'shimcha cho'qqilarning borligi bilan asoslanadi. Bu sohada cho'qqilarning paydo bo'lishi gidroksil guruhidagi vodorodning siqib chiqarilishi hisobiga metall ionlari va gidroksil guruhidagi kislorod atomi orasidagi valent bog'ning paydo bo'lishi bilan tushuntiriladi. Reagentlar molekulasidagi nitrozo va diazoguruhning valent tebranishi 1654 cm^{-1} da, kompleks birikmalardagi nitrozo va diazoguruhning valent tebranishi 1652-1658 cm^{-1} sohalarda kuzatiladi, bu esa o'z navbatida nitrozo va dizoguruh bilan metall ionlari orasida koordinasion bog' borligidan dalolat beradi.

Qolgan funksional guruhlar barcha komplekslarning IQ va Raman spektrlarida deyarli bir xil kuzatildi. Tekshirilayotgan HR^1 , HR^2 , HR^3 , HR^4 lar bilan Fe^{3+} , Co^{2+} , Ni^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} , Hg^{2+} ionlarini turli xil rangli kompleks birikmalarining tuzilishini IQ va Raman spektroskopik tahlil, yangi komplekslar zaryadlarini aniqlash, tarkibiy mollar nisbati va kvant-kimyoviy hisoblash natijalari asosida quyidagicha ifodalash mumkin: $xHR^{n-} + M^{m+} \rightarrow [MR_m]^{xn-} + xH^+$.


Fe^{3+} ionini HR^1 bilan kompleksining taxminiy tuzilish formulasi




Co^{2+} va Cu^{2+} ionlarini HR^1 bilan komplekslarining taxminiy tuzilish formulasi



Co^{2+} , Cu^{2+} u Hg^{2+} ionlarini HR^2 bilan komplekslarining taxminiy tuzilish formulasi



Ni^{2+} , Cu^{2+} va Zn^{2+} ionlarini HR^3 bilan komplekslarining taxminiy tuzilish formulasi



Dissertatsiyaning «Ishlab chiqilgan spektrofotometrik uslublarning metrologik tavsiflarini aniqlash» deb nomlangan to'rtinchi bobida darajalangan grafik tenglamalari (DG) eng kichik kvadratlar usulida hisoblandi va unga asosan ishlab chiqilgan uslublarning to'g'riligi va qayta takrorlanuvchanligi aniqlandi, Fe^{3+} , Co^{2+} , Ni^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} va Hg^{2+} ionlarining HR^1 , HR^2 , HR^3 va HR^4 bilan quyi aniqlanish chegaralari aniqlandi, shuningdek, Fe^{3+} , Co^{2+} , Ni^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} va Hg^{2+} ionlarini mikromiqdorlarini begona ionlar ishtirokida spektrofotometrik aniqlandi.

HR^1 , HR^2 , HR^3 va HR^4 reagentlari bilan Fe^{3+} , Co^{2+} , Ni^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} , Hg^{2+} ionlari komplekslarini atrof-muhit obyektlari analizida qo'llashda metall ionining miqdorini topish uchun, spektrofotometrik usuli bilan o'lchanayotgan «Y» kattaligi, optik zichlik «A» aniqlanayotgan modda miqdori «Xi» ga bog'liqligi grafigidan foydalanildi. Metall ionlarini aniqlash uchun DG tenglamalari 2-jadvalda keltirildi.

Optimal sharoitlarda darajalangan grafik tenglamasi asosida aniqlashning quyi chegarasi (Q_{min}) hisoblab chiqildi (3-jadval) va optik zichlikning $Fe(III)$, $Co(II)$, $Ni(II)$, $Cu(II)$, Zn , $Hg(II)$ ionlari konsentratsiyasiga bog'liqlik grafigi chizildi, shuningdek «kiritildi-topildi» usuli bilan olingan natijalarda nisbiy standart chetlanish (Sr) FeR^1_3 uchun 0,032; CoR^1_2 uchun 0,046; CuR^1_2 uchun 0,039; CoR^2_2

uchun 0,073; CuR_2^2 uchun 0,129; HgR_2^2 uchun 0,042; NiR_3^2 uchun 0,057; CuR_3^2 uchun 0,050; ZnR_3^2 uchun 0,115; CuR_4^2 uchun 0,045; ZnR_4^2 uchun 0,100 va HgR_4^2 uchun 0,044 dan oshmaydigan metall ionlarini aniqlash uchun ishlab chiqilgan uslublarning to'g'riligi va takrorlanishini tasdiqlaydi.

2-jadval

Fe^{3+} , Co^{2+} , Ni^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} , Hg^{2+} ionlarini HR^1 , HR^2 , HR^3 va HR^4 reagentlari bilan aniqlash uchun darajalangan grafik tenglamalari

No	Tarkib	$Y_i=a+bX_i$	No	Tarkib	$Y_i=a+bX_i$
1	Fe^{3+} c HR^1	$0,0326+0,0123X_i$	7	Ni^{2+} c HR^3	$0,0014+0,0041X_i$
2	Co^{2+} c HR^1	$0,0097+0,0170X_i$	8	Cu^{2+} c HR^3	$0,0068+0,0042X_i$
3	Cu^{2+} c HR^1	$0,0013+0,0073X_i$	9	Zn^{2+} c HR^3	$0,0073+0,0070X_i$
4	Co^{2+} c HR^2	$0,0123+0,0078X_i$	10	Cu^{2+} c HR^4	$0,0036+0,0450X_i$
5	Cu^{2+} c HR^2	$0,0213+0,0083X_i$	11	Zn^{2+} c HR^4	$0,0054+0,0171X_i$
6	Hg^{2+} c HR^2	$0,0050+0,0070X_i$	12	Hg^{2+} c HR^4	$0,0033+0,0055X_i$

3-jadval

Fe^{3+} , Co^{2+} , Ni^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} , Hg^{2+} ionlarini HR^1 , HR^2 , HR^3 va HR^4 reagentlari bilan quyi aniqlash chegarasining natijalari

No	Kompleks tarkibi	Kiritilgan M^{n+} , mkg	pH muhit oralig'i	Optimal pH muhit	λ , nm	V_{HR^n} , cm^3	S_A	Q_{min} mkg/ 25 cm^3
1	FeR_3^1	2,0-48,0	4,2-5,0	4,52	675	2,50	0,00177	0,1120
2	CoR_2^1	1,0-18,0	4,0-7,0	5,10	550	1,25	0,00168	0,3094
3	CuR_2^1	2,0-45,0	6,8-7,4	7,10	505	1,50	0,00114	0,0492
4	CoR_2^2	1,0-30,0	5,5-10,0	6,45	540	1,12	0,00178	0,6714
5	CuR_2^2	1,0-42,0	5,5-8,2	6,54	510	1,00	0,00144	0,2860
6	HgR_2^2	2,0-50,0	4,8-6,4	5,80	475	1,60	0,00175	0,6200
7	NiR_3^2	5,0-55,0	9,0-9,4	9,15	575	1,20	0,00193	0,6004
8	CuR_3^2	5,0-40,0	7,2-8,5	8,02	590	1,10	0,00256	0,2390
9	ZnR_3^2	2,0-35,0	6,5-7,0	6,73	438	1,20	0,00128	0,1220
10	CuR_4^2	0,5-6,50	3,5-4,8	3,96	595	0,90	0,00177	0,2338
11	ZnR_4^2	1,0-18,0	5,9-7,0	6,52	565	1,50	0,00271	0,1746
12	HgR_4^2	1,0-40,0	8,0-9,0	8,58	645	1,30	0,00160	0,7618

Reagentlarning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan analizda ishlatilish imkoniyatini va usulning selektivligini aniqlash maqsadida turli xil begona ionlar ishtirokida Fe(III) , Co(II) , Ni(II) , Cu(II) , Zn , Hg(II) ionlarini aniqlashga ta'sirini tadqiqoti o'tkazildi. Aniqlash ishlab chiqilgan uslub asosida optimal sharoitlarda o'tkazildi. Natijalarning ko'rsatishicha, 25 sm^3 eritmada HR^1 reagenti bilan 15,0 mkg Co^{2+} ni aniqlashda Ni^{2+} , Zn^{2+} , Cu^{2+} (1:10), Fe^{2+} (1:100) xalaqit beradi, HR^2 reagenti bilan 30,0 mkg Co^{2+} ni aniqlashda F^- , Hg^{2+} (1:10), Pb^{2+} (1:8), Fe^{3+} (1:7,5) xalaqit beradi, 40,0 mkg Cu^{2+} ni aniqlashda EDTA , SCN^- , F^- (1:1) xalaqit beradi, 30,0 mkg Hg^{2+} ni aniqlashda Bi^{3+} , Ni^{2+} , Mn^{2+} (1:10), Cd^{2+} , Fe^{2+} , Fe^{3+} (1:5), EDTA , sitrat (1:1,0) xalaqit beradi; shuningdek HR^4 reagenti bilan 6,0 mkg Cu^{2+} ni aniqlashda Bi^{3+} , Co^{2+} , Fe^{2+} , Cd^{2+} , $\text{H}_2\text{C}_6\text{H}_5\text{O}_7^-$ (1:5), 15,0 mkg Zn^{2+} aniqlashda Cu^{2+} (1:7,5), Ni^{2+} , sitrat (1:5), Cd^{2+} , Fe^{2+} , SCN^- , Ti^{3+} , EDTA , OH^- (1:3) va 30,0 mkg Hg^{2+} aniqlashda Sn^{2+} , Pd^+ (1:33); Fe^{2+} , Fe^{3+} (1:10); Br^- , J^- (1:3); Cl^- (1:1) xalaqit beradi. Reagentlarning tanlab ta'sir etuvchanligini oshirilishi kompleks hosil bo'lishning optimal sharoitlarini to'g'ri tanlash bilan bog'liq, bu esa OZM larni aniqlash

uslubining yuqori metrologik va analitik tavsiflariga erishish imkoniyatini berdi.

Turli xossaligi va miqdordagi kompleks hosil qiluvchi birikmalarning begona kationlari hamda xalaqit beruvchi anionlarning ta'sirini aniqlash bo'yicha natijalar Fe^{3+} , Co^{2+} , Cu^{2+} ionlarini HR^1 bilan, Co^{2+} , Cu^{2+} , Hg^{2+} ionlarini HR^2 bilan, Ni^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} ionlarini HR^3 bilan, shuningdek Cu^{2+} , Zn^{2+} , Hg^{2+} ionlarini HR^4 bilan individual eritmalarda aniqlash imkoniyatini berdi, bu esa ushbu ionlarni sun'iy, binar, murakkab aralashmalar va atrof-muhit obyektlari hamda sanoat materiallari tarkibidan aniqlashga, shuningdek, ushbu metallarni kimyoviy tahlil amaliyotida turli atrof-muhit obyektlari va sanoat materiallariga o'xshash namunalardan tarkibidan yuqori metrologik tavsiflar va analitik parametrlar bilan aniqlash uchun spektrofotometrik qo'llanilishga asos bo'ldi.

Dissertatsiyaning beshichi bobini « **HR^1 , HR^2 , HR^3 va HR^4 reagentlari bilan Fe(III) , Co(II) , Ni(II) , Cu(II) , Zn , Hg(II) ionlarini spektrofotometrik aniqlash uslublarini atrof-muhit obyektlari analiziga qo'llanilishi» deb nomlanib, unda atrof-muhit obyektlari tarkibidan Fe^{3+} , Co^{2+} , Cu^{2+} ionlarini HR^1 bilan, Co^{2+} , Cu^{2+} , Hg^{2+} ionlarini HR^2 bilan, Ni^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} ionlarini HR^3 bilan, shuningdek Cu^{2+} , Zn^{2+} , Hg^{2+} ionlarini HR^4 bilan suvli eritmada spektrofotometrik aniqlashga bag'ishlangan. Fe^{3+} , Co^{2+} , Ni^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} , Hg^{2+} ionlarini HR^1 , HR^2 , HR^3 va HR^4 yordamida sun'iy aralashmalar, qo'shimchalar qo'shish uslubi bilan tabiiy "Omonxona" buloq suvidan yomg'ir suvidan, sut mahsulotlaridan, standart sanoat namunalari va Xondiza konining rudasi tarkibidan aniqlangan, shuningdek ishlab chiqilgan uslublarning raqobatbardoshligi ham berilgan. Ishlab chiqilgan spektrofotometrik uslublar va olingan tajriba natijalari jahon adabiyotlarida ma'lum bo'lgan matematik statistika usullarining amaldagi qoida va amallari bilan qayta ishlangan. Ishlab chiqilgan uslublarni sun'iy aralashma, tabiiy va sanoat obyektlari (tabiiy suvlar, qotishma, minerallar, ruda) va boshqa real tabiiy atrof-muhit obyektlari hamda sanoat materiallari analiziga qo'llash mumkin.**

Fe(III) , Co(II) , Ni(II) , Cu(II) , Zn , Hg(II) ionlarini HR^1 , HR^2 , HR^3 va HR^4 bilan ishlab chiqilgan uslublari olingan optimal sharoitlarda niqoblovchilar qo'shish orqali murakkab va sun'iy aralashmalar analizida qo'llanildi.

Olingan tajriba natijalari Fe^{3+} , Co^{2+} , Ni^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} , Hg^{2+} ionlarini tabiati va miqdorlari turlicha bo'lgan hamda alohida holda uchraganda xalaqit bermaydigan va birga uchraydigan metallar ishtirokida tabiiy obyektlar, sanoat materiallari hamda xalaqit beruvchi ionlar ishtirokida aniqlash imkoniyatini yaratdi. Murakkab sun'iy aralashmalarni tayyorlashda Fe^{3+} , Co^{2+} , Cu^{2+} ionlarini HR^1 bilan, Co^{2+} , Cu^{2+} , Hg^{2+} ionlarini HR^2 bilan, Ni^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} ionlarini HR^3 bilan, shuningdek Cu^{2+} , Zn^{2+} , Hg^{2+} ionlarini HR^4 bilan aniqlashga xalaqit beruvchi ionlar asos qilib olindi. Murakkab sun'iy aralashmalar analizi natijalari 4-jadvalda keltirilgan, olingan natijalarga ko'ra, ularni real obyektlar tarkibiga mos bo'lgan sun'iy aralashmalar tarkibidan spektrofotometrik aniqlash mumkinligi, ishlab chiqilgan uslublardagi nisbiy standart chetlanish (S_r) ning qiymati FeR^1_3 uchun 0,004; CoR^1_2 uchun 0,008; CuR^1_2 uchun 0,004; CoR^2_2 uchun 0,013; CuR^2_2 uchun 0,004; HgR^2_2 uchun 0,014; NiR^3_2 uchun 0,024; CuR^3_2 uchun 0,009; ZnR^3_2 uchun 0,0087; CuR^4_2 uchun 0,020; ZnR^4_2 uchun 0,023 va HgR^4_2 uchun 0,016 dan oshmasligi bilan asoslanadi, bu esa ishlab chiqilgan uslublarning to'g'riligini va ishonchligini ko'rsatadi.

4-jadval

Fe³⁺, Co²⁺, Ni²⁺, Cu²⁺, Zn²⁺ va Hg²⁺ ionlari mikromiqdorlarini sun'iy aralashma tarkibidan aniqlash natijalari (V=25,0 sm³; P=0,95)

Sun'iy aralashma tarkibi (nisbatlari)	Kiritildi M ⁿ⁺ , mkg	A	Topildi M ²⁺ , mkg, \bar{X}_i	S	S _r	$\bar{X} \pm \Delta X$
Fe ³⁺ ni HR ¹ bilan (ℓ=3,0 sm; λ=675 nm; n=3; pH=4,52; V _{HR} ¹ =2,5 sm ³ ; Yi=0,0326+0,0123Xi)						
Mg ²⁺ , Pb ²⁺ , Cl ⁻ (1:10) Co ²⁺ , Cu ²⁺ (1:2), J, SO ²⁻ ₄ , F ⁻ (1:100)	40,0	0,528 0,525 0,524	40,28 40,03 39,95	0,172	0,004	40,09±0,427
Co ²⁺ ni HR ¹ bilan (ℓ=1,0 sm; λ=550 nm; n=3; pH=5,10; V _{HR} ¹ =1,25 sm ³ ; Yi=0,0097+0,0170Xi)						
Na ⁺ , K ⁺ , NO ₃ ⁻ (1:100), Cu ²⁺ , Fe ²⁺ (1:1,0) Mg ²⁺ , Al ³⁺ (1:10)	15,0	0,268 0,265 0,264	15,19 15,02 14,96	0,119	0,008	15,06±0,296
Cu ²⁺ ni HR ¹ bilan (ℓ=3,0 sm; λ=505 nm; n=3; pH=7,10; V _{HR} ¹ =1,50 sm ³ ; Yi=0,0013+0,0073Xi)						
Mg ²⁺ , Pb ²⁺ , Cl ⁻ (1:10) Co ²⁺ , Fe ³⁺ (1:2), J, SO ²⁻ ₄ , F ⁻ (1:100)	40,0	0,294 0,292 0,294	40,10 39,82 40,10	0,162	0,004	40,01±0,402
Co ²⁺ ni HR ² bilan (ℓ=1,0 sm; λ=540 nm; n=3; pH=6,42; V _{HR} ² =1,1 sm ³ ; Yi=0,0123+0,0078Xi)						
Na ⁺ , K ⁺ , NO ₃ ⁻ (1:100), Cu ²⁺ , Fe ²⁺ (1:1,0) Mg ²⁺ , Al ³⁺ (1:10)	20,0	0,166 0,168 0,170	19,71 19,96 20,22	0,255	0,013	19,96±0,634
Cu ²⁺ ni HR ² bilan (ℓ=2,0 sm; λ=510 nm; n=3; pH=6,54; V _{HR} ² =1,0 sm ³ ; Yi=0,0213+0,0083Xi)						
Mg ²⁺ , Pb ²⁺ , Cl ⁻ (1:10) Co ²⁺ , Fe ³⁺ (1:2), J, SO ²⁻ ₄ , F ⁻ (1:100)	35,0	0,312 0,310 0,312	35,02 34,78 35,02	0,139	0,004	34,94±0,345
Hg ²⁺ ni HR ² bilan (ℓ=3,0 sm; λ=475 nm; n=3; pH=5,80; V _{HR} ² =1,6 sm ³ ; Yi=0,0050+0,0070Xi)						
K ⁺ , Na ⁺ , Ba ²⁺ , Cr ³⁺ , Pb ²⁺ (1:100), Fe ³⁺ (1:5) Cl ⁻ , F ⁻ , CH ₃ COO ⁻ (1:100)	30,0	0,218 0,215 0,212	30,43 30,00 29,57	0,430	0,014	30,00±1,07
Ni ²⁺ ni HR ³ bilan (ℓ=1,0 sm; λ=575 nm; n=5; pH=9,15; V _{HR} ³ =1,2 sm ³ ; Yi=0,0014+0,0041Xi)						
Na ⁺ , K ⁺ , I ⁻ (1:1000) Co ²⁺ , Al ³⁺ , Fe ²⁺ (1:10) Mn ²⁺ , F ⁻ , S ₂ O ₃ ²⁻ , NO ₂ ⁻ (1:5), Cu ²⁺ (1:1)	50,0	0,213 0,208 0,210 0,212 0,204	51,61 50,39 50,88 51,37 49,41	1,20	0,024	50,73±1,49
Cu ²⁺ ni HR ³ bilan (ℓ=2,0 sm; λ=590 nm; n=3; pH=8,00; V _{HR} ³ =1,2 sm ³ ; Yi=0,0068+0,0042Xi)						
NH ₄ ⁺ , Al ³⁺ (15), Ni ²⁺ , (4); Fe ²⁺ (3), F ⁻ , NO ₃ ⁻ , (150) CH ₃ COO ⁻ (10,0)	30,0	0,132 0,130 0,132	29,81 29,33 29,81	0,277	0,009	29,65±0,688
Zn ²⁺ ni HR ³ bilan (ℓ=1,0 sm; λ=438 nm; n=5; pH=6,73; V _{HR} ³ =1,2 sm ³ ; Yi=0,0073+0,007Xi)						
Cu ²⁺ (1:1), Mg ²⁺ , Pb ²⁺ (1:5), NO ₃ ⁻ , Cl ⁻ , SO ₄ ²⁻ (1:10)	30,0	0,219 0,220 0,218 0,217 0,216	29,885 30,049 29,721 29,557 29,393	0,259	0,0087	0,322±29,72

Ni²⁺, Cu²⁺ va Zn²⁺ ionlarini individual va murakkab aralashmalar hamda real obyektlarda to'g'ridan-to'g'ri spektrofotometrik aniqlash sharoitlarini optimallashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar asosida, tabiiy suvlardan: Omonxona bulog'i suvi tarkibidan ushbu ionlarni ekspress aniqlash uslublari ishlab chiqildi.

Ni²⁺ ionini HR³ bilan va Cu²⁺, Zn²⁺ ionlarini HR⁴ bilan aniqlashda namunani

analizga tayyorlash uslubi: Omonxona bulog‘idan olingan hajmi 2,0 dm³ (Cu²⁺ va Zn²⁺ ionlari uchun 1,0 dm³ dan) bo‘lgan namunani 2000 sm³ li issiqqa chidamli stakanga solindi, ustiga 20 sm³ 1,0 n li nitrat kislota eritmasi solib, aralashmani qum hammomida qizdirildi, eritmani nam tuz holigacha bug‘latildi. Cho‘kmani 10 sm³ distillangan suvda eritildi va 50 sm³ li stakanga filtrlab olinadi. So‘ngra eritmani 25,0 sm³ li o‘lchov kolbalariga miqdoran o‘tkazildi, ustiga 5,0-40,0 mkg miqdordagi Ni²⁺, 0,5-2,0 mkg miqdordagi Cu²⁺, 1,0-7,0 mkg miqdordagi Zn²⁺ eritmaları, har bir kolbalarga Ni²⁺, Cu²⁺ va Zn²⁺ uchun mos ravishda pH 9,15; 3,98 va 6,48 bo‘lgan 5,0 sm³ dan universal bufer aralashmasi va 1,2 sm³ 0,05 % li HR³, 0,9 sm³ hamda 1,5 sm³ 0,05 % li HR⁴ eritmalaridan solinib, kolbaning chizig‘igacha distillangan suv bilan to‘ldirildi va yaxshilab aralastirildi. Tabiiy suvlar analizi natijalariga ko‘ra (5-jadval), Ni²⁺ ionini HR³ bilan va Cu²⁺, Zn²⁺ ionlarini HR⁴ bilan spektrofotometrik aniqlash uslublari, topilgan optimal sharoitlarda o‘zining ishonchliligi, to‘g‘riligi, selektivligi, quyi aniqlanish chegarasi va Sr ning Ni²⁺ uchun 0,0263 dan, Cu²⁺ uchun 0,0159 dan va Zn²⁺ uchun 0,0195 dan oshmasligi bilan tavsiflanadi.

5-jadval

«Qo‘shilmalar usuli» bilan Omonxona bulog‘i suvi tarkibidan Ni²⁺ ionini HR³ bilan va Cu²⁺, Zn²⁺ ionlarini HR⁴ bilan aniqlash natijalari

No	Qo‘shildi, M ²⁺ , mkg	Eritmadagi M ²⁺ miqdori, mkg/25sm ³	\bar{A}	Topildi, M ²⁺ , $\bar{X} \pm \Delta X$	Namunadagi M ²⁺ miqdori, mkg	S	S _r
Ni ²⁺ ionini HR ³ bilan (V _{suv} =2,0 dm ³ ; pH=9,15; ℓ=1,0 sm; λ _{max} =575 nm; Yi=0,0014+0,0041Xi)							
1	-	13,80	0,0570	13,56±0,88	13,56	0,356	0,0263
2	5,00	18,80	0,0776	18,60±0,92	13,60	0,371	0,0199
3	10,00	23,80	0,0976	23,48±0,35	13,48	0,139	0,0059
4	15,00	28,80	0,1180	28,44±1,22	13,44	0,490	0,0172
5	20,00	33,80	0,1403	33,90±1,53	13,90	0,615	0,0181
6	25,00	38,80	0,1600	38,68±1,20	13,68	0,485	0,0125
7	30,00	43,80	0,1790	43,32±0,61	13,32	0,246	0,0057
8	35,00	48,80	0,2006	48,60±1,53	13,60	0,614	0,0126
9	40,00	53,80	0,2223	53,88±0,92	13,88	0,372	0,0069
Cu ²⁺ ionini HR ⁴ bilan (V _{suv} =1,0 dm ³ ; pH=3,98; ℓ=3,0 sm; λ _{max} =595 nm; Yi=0,0036+0,045Xi)							
1	-	4,00	0,1820	3,96±0,08	3,96	0,063	0,0159
2	0,50	4,50	0,2050	4,48±0,06	3,98	0,050	0,0112
3	1,00	5,00	0,2260	4,95±0,06	3,95	0,052	0,0105
4	2,00	6,00	0,2720	5,96±0,06	3,96	0,045	0,0076
Zn ²⁺ ionini HR ⁴ bilan (V _{suv} =1,0 dm ³ ; pH=6,48; ℓ=3,0 sm; λ _{max} =565 nm; Yi=0,0054+0,0171Xi)							
1	-	8,00	0,1410	7,93±0,19	7,93	0,155	0,0195
2	2,00	10,00	0,1740	9,86±0,15	7,86	0,120	0,0122
3	4,00	12,00	0,2090	11,90±0,12	7,90	0,103	0,0086
4	6,00	14,00	0,2450	14,01±0,16	8,01	0,131	0,0093

Olib borilgan tadqiqot ishlari davomida optimal sharoitlarga asosan Zn²⁺ va Hg²⁺ ionlarini HR⁴ bilan yomg‘ir suvlari tarkibidan “kiritildi-topildi” usuli bilan spektrofotometrik aniqlash tadqiqoti amalga oshirildi (6-jadval). Olingan natijalar asosida xulosa qilish mumkinki (6-jadval), ishlab chiqilgan spektrofotometrik uslublar va yomg‘ir suvi analizi natijalari o‘zining yetarlicha tezkorligi va tanlab ta’sir etuvchanligi bilan tavsiflanadi, shuningdek S_r qiymati Zn²⁺ ion uchun 0,018 dan va Hg²⁺ ion uchun 0,030 dan oshmadi.

6-jadval

«kiritildi-topildi» usuli bilan yomg'ir suvi tarkibidan Cu^{2+} va Zn^{2+} ionlarini mikromiqdorini HR^4 bilan aniqlash natijalari

№	Kiritildi, M^{2+} , mkg	\bar{A}	Topildi, M^{2+} , mkg, $\bar{X} \pm \Delta X$	S	S_r
Zn^{2+} ni HR^4 bilan ($V_{\text{suv}}=0,2 \text{ dm}^3$; $\text{pH}=6,48$; $\ell=3,0 \text{ sm}$; $\lambda_{\text{max}}=565 \text{ nm}$; $Y_i=0,0054+0,0171X_i$)					
1	10	0,175	$9,92 \pm 0,45$	0,180	0,018
2	15	0,262	$14,89 \pm 0,29$	0,115	0,008
Hg^{2+} ni HR^4 bilan ($V_{\text{suv}}=0,2 \text{ dm}^3$; $\text{pH}=8,58$; $\ell=1,0 \text{ sm}$; $\lambda_{\text{max}}=645 \text{ nm}$; $Y_i=0,0033+0,0055X_i$)					
1	10	0,056	$9,58 \pm 0,70$	0,280	0,030
2	20	0,112	$19,76 \pm 0,91$	0,365	0,018
3	30	0,166	$29,58 \pm 0,45$	0,18	0,006

Ishlab chiqilgan metall ionlarini sezgir organik reagentlar bilan ekspres va tanlab ta'sir etuvchan aniqlash usublari optimal sharoitlarda sanoat qotishmalarining standart namunalari analiziga qo'llanildi. Ni^{2+} , Cu^{2+} va Zn^{2+} ionlarini HR^3 bilan standart sanoat qotishmalari tarkibidan aniqlash natijalari 7-jadvalda keltirilgan, olingan natijalar tahlilidan ko'rinib turibdiki, nisbiy standart chetlanish (S_r) Ni^{2+} ionini uchun 0,0187 dan, Cu^{2+} ionini uchun 0,0092 dan va Zn^{2+} uchun 0,0250 dan oshmaganligi ishlab chiqilgan usublarning yetarlicha sezgirlikidan dalolat beradi.

7-jadval

 Ni^{2+} , Cu^{2+} va Zn^{2+} ionlarini HR^3 bilan standart sanoat qotishmalari tarkibidan spektrofotometrik aniqlash natijalari ($V=25,0 \text{ cm}^3$; $P=0,95$)

Namuna nomi., M, %	$V_{\text{nam.}}$, cm^3	Alikvotdagi M^{2+} miqdori, mkg	\bar{A}	Topildi Me^{2+} , mkg $\bar{X} \pm \Delta X$	S	S_r
Ni^{2+} ionini HR^4 bilan aniqlash ($\text{pH}=9,15$; $\ell=1,0 \text{ cm}$; $\lambda_{\text{max}}=575 \text{ nm}$; $Y_i=0,0014+0,0041X_i$)						
AK12MK -203-5; 0,45	3,00	30,00	0,1236	$29,82 \pm 0,94$	0,3764	0,0126
	3,50	35,00	0,1433	$34,86 \pm 0,92$	0,3721	0,0107
	4,00	40,00	0,1633	$39,50 \pm 1,41$	0,5658	0,0143
	4,50	45,00	0,1853	$44,86 \pm 2,08$	0,8368	0,0187
	5,00	50,00	0,2036	$49,30 \pm 0,93$	0,3732	0,0076
Cu^{2+} ionini HR^3 bilan aniqlash ($\text{pH}=8,0$; $\ell=2,0 \text{ sm}$; $\lambda_{\text{max}}=590 \text{ nm}$; $Y_i=0,00568+0,00435X_i$)						
A-203-1; 3,3	1,30	21,76	0,099	$21,45 \pm 0,33$	0,133	0,0061
	1,80	30,11	0,137	$30,19 \pm 0,52$	0,209	0,0069
	2,30	38,54	0,173	$38,46 \pm 0,85$	0,343	0,0089
A-203-5; 1,5	3,00	22,50	0,102	$22,14 \pm 0,63$	0,133	0,0059
	4,00	30,00	0,138	$30,42 \pm 0,66$	0,266	0,0088
	5,00	37,50	0,172	$38,23 \pm 0,87$	0,351	0,0092
Zn^{2+} ionini HR^4 bilan aniqlash ($\text{pH}=6,73$; $\ell=3,0 \text{ cm}$; $\lambda_{\text{max}}=438 \text{ nm}$; $Y_i=0,0367+0,0061X_i$)						
A-203-5; 1,0	1,0	10,00	0,100	$10,377 \pm 0,422$	0,259	0,0250
	2,0	20,00	0,156	$19,557 \pm 0,626$	0,262	0,0134
	3,0	30,00	0,221	$30,213 \pm 0,322$	0,259	0,0086

Optimallashtirilgan sharoitlarda Cu^{2+} va Zn^{2+} ionlari HR^4 bilan standart sanoat qotishmalari tarkibidan aniqlandi. Olingan natijalar va ularning matematik qayta ishlash natijalari 8-jadvalda keltirilgan. Tadqiqot davomida bajarilgan alyuminiy va

mis asosidagi standart sanoat namunalarining analizi natijalari dan ko‘rinib turibdiki (8-jadval), Cu^{2+} va Zn^{2+} ionlarini HR^4 reagenti bilan spektrofotometrik aniqlash uslublari, yetarlicha sezgirliigi, o‘zining quyi aniqlanish chegarasining pastligi, selektivligi va nisbiy standart chetlanishning (S_r) qiymati Cu^{2+} ioni uchun 0,0428 va Zn^{2+} uchun 0,0374 dan oshmaganligi bilan ijobiy tavsiflanadi.

8-jadval

Cu^{2+} va Zn^{2+} ionlarini HR^4 bilan standart sanoat qotishmalari tarkibidan spektrofotometrik aniqlash natijalari ($V=25,0 \text{ sm}^3$; $P=0,95$)

Namuna nomi., M, %	$V_{\text{nam.}}$, sm^3	Alikvotdagi M^{2+} miqdori, mkg	\bar{A}	Topildi, Me^{2+} , mkg, $\bar{X} \pm \Delta X$	S	S_r
Cu^{2+} ionini HR^4 bilan aniqlash ($\text{pH}=3,98$; $\ell=3,0 \text{ sm}$; $\lambda_{\text{max}}=595 \text{ nm}$; $Y_i=0,0036+0,045X_i$)						
A-203-1, 3,3	1,0	3,30	0,154	$3,34 \pm 0,11$	0,0453	0,0136
	1,5	4,95	0,231	$5,05 \pm 0,10$	0,0406	0,0080
	1,8	5,94	0,279	$6,12 \pm 0,18$	0,0714	0,0117
M 123-1, 81,964	0,1	2,05	0,098	$2,10 \pm 0,11$	0,0453	0,0215
	0,2	4,10	0,183	$3,98 \pm 0,13$	0,0520	0,0131
	0,3	6,15	0,280	$6,14 \pm 0,11$	0,0453	0,0074
M 99-5, 82,14	0,1	2,05	0,098	$2,10 \pm 0,22$	0,0900	0,0428
	0,2	4,11	0,192	$4,19 \pm 0,14$	0,0552	0,0132
	0,3	6,16	0,280	$6,14 \pm 0,11$	0,0453	0,0074
Zn^{2+} ionini HR^4 bilan aniqlash ($\text{pH}=6,48$; $\ell=3,0 \text{ sm}$; $\lambda_{\text{max}}=565 \text{ nm}$; $Y_i=0,0054+0,0171X_i$)						
A-203-5, 1,0	2,5	5,0	0,090	$4,95 \pm 0,23$	0,185	0,0374
	5,0	10,0	0,179	$10,15 \pm 0,19$	0,154	0,0154
	7,5	15,0	0,258	$14,77 \pm 0,33$	0,262	0,0177
A-202-2c, 0,15	2,0	3,0	0,056	$2,96 \pm 0,24$	0,095	0,0320
	4,0	8,0	0,143	$8,05 \pm 0,45$	0,180	0,0220
	5,0	10,0	0,176	$9,98 \pm 0,24$	0,096	0,0100

Ishlab chiqilgan uslublar tabiiy obyekt hisoblangan Surxondaryo viloyatida joylashgan Xondiza polimetall rudasi analiziga tatbiq etildi (9-jadval). Rudalar tahlilining natijalari 9-jadvalda keltirildi, olingan natijalar yetarlicha sezgir va S_r qiymati barcha tajribalarda 0,0461 dan oshmadi.

9-jadval

Xondiza rudasi tarkibidan Ni^{2+} , Cu^{2+} va Zn^{2+} ionlarini spektrofotometrik aniqlash natijalari ($p=0,95$)

No	$V_{\text{nam.}}$, sm^3	Alikvotdagi M^{2+} miqdori, mkg	\bar{A}	Topildi M^{2+} , mkg $\bar{X} \pm \Delta X$	S	S_r
Ni^{2+} ionini HR^3 bilan ($m_{\text{nam.}}=0,2000 \text{ g}$; $\ell=1,0 \text{ sm}$; $\lambda=575 \text{ nm}$; $n=3$; $\text{pH}=9,15$; $V_{\text{HR}^3}=1,2 \text{ sm}^3$)						
1	0,50	12,37	0,0508	$12,05 \pm 0,69$	0,556	0,0461
2	1,00	24,74	0,1006	$24,19 \pm 0,79$	0,634	0,0262
3	1,50	37,11	0,1512	$36,54 \pm 0,81$	0,654	0,0179
4	2,00	49,48	0,2032	$49,22 \pm 0,81$	0,316	0,0064
Cu^{2+} ionini HR^4 bilan ($m_{\text{nam.}}=0,100 \text{ g}$; $\ell=3,0 \text{ sm}$; $\lambda=595 \text{ nm}$; $n=5$; $\text{pH}=3,98$; $V_{\text{HR}^4}=0,9 \text{ sm}^3$)						
1	0,5	2,86	0,132	$2,85 \pm 0,05$	0,044	0,0154
2	1,0	5,73	0,262	$5,74 \pm 0,05$	0,044	0,0077
3	1,1	6,30	0,286	$6,28 \pm 0,05$	0,042	0,0067
Zn^{2+} ionini HR^4 bilan ($m_{\text{nam.}}=0,100 \text{ g}$; $\ell=3,0 \text{ sm}$; $\lambda=565 \text{ nm}$; $n=5$; $\text{pH}=6,48$; $V_{\text{HR}^4}=1,4 \text{ sm}^3$)						
1	1,0	6,19	0,110	$6,12 \pm 0,23$	0,185	0,0030
2	2,0	12,37	0,214	$12,20 \pm 0,17$	0,137	0,0112
3	2,5	15,46	0,268	$15,36 \pm 0,23$	0,185	0,0120

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida (3-9 jadvallar), tanlangan optimal sharoitlarda ishlab chiqilgan spektrofotometrik aniqlash uslublari Fe^{3+} , Co^{2+} , Ni^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} , Hg^{2+} ionlarini aniqlashda nisbiy standart chetlanishning (S_r) qiymatlari barcha holatlarda 0,0461 dan oshmaganligi, aniqlangan ionlarning miqdorlari ishonchlilik ehtimolligi chegarasidan chiqmaganligi, natijalarning yetarlicha tanlab ta'sir etuvchanligi, to'g'riligi, ishonchliligi, qayta takrorlanuvchanligi, selektivligi va quyi aniqlanish chegarasining pastligi bilan muhim hisoblanadi hamda Fe^{3+} , Co^{2+} , Cu^{2+} ionlarini HR¹ bilan, Co^{2+} , Cu^{2+} , Hg^{2+} ionlarini HR² bilan, Ni^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} ionlarini HR³ bilan, shuningdek Cu^{2+} , Zn^{2+} , Hg^{2+} ionlarini HR⁴ bilan atrof-muhit obyektlari analizi tarkibidan aniqlashga tavsiya etildi.

Dissertatsiyaning oltinchi bobi «**Atrof-muhit obyektlari tarkibidagi ayrim og'ir va zaharli metall ionlarini monitoringi**» deb nomlanib, mazkur bob atrof-muhit obyektlari tarkibidan kimyoviy element ionlarini tabiiy buloq va daryo suvlari, shuningdek o'gir va zaharli metall ionlarini sanoat korxonalarining turiga ko'ra tuproqlar va yer-usti suvlari tarkibidan monitoring qilishga bag'ishlangan. Ma'lumki, hozirgi kunda respublikamizda va jahonda faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish hamda kimyo sanoati korxonalaridan chiqayotgan gazlar, oqova suvlar va chiqindilar tabiiy suvlar, o'simliklar va tuproqlarning texnogen ifloslanishiga hamda ularning kimyoviy tarkibining buzilishiga olib kelmoqda. Shu sababli, chiqindilarni qayta ishlash tizimining yo'lga qo'yilishi atrof-muhitga kamroq zarar yetkazadi.

Atrof-muhit obyektlari tarkibidan kimyoviy elementlar, shuningdek, metall ionlarini monitoring qilish maqsadida Toshkent viloyatining Olmaliq shahrida joylashgan «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ (OKMK), «Ammofos-Maksam» AJ (ASMAK), Angren shahrida joylashgan «Angren issiqlik elektr stansiyasi» AJ (AIES), «Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi» AJ (YAIES) va «Angren neft bazasi» AJ (ANB), Bekobod tumanidagi «O'zbekiston metallurgiya kombinati» AJ (O'zMK) hamda «Bekobodsement» AJ (BS) kabi sanoat korxonalari atrofida tarqalgan tuproqlar, suv manbalari va o'simliklarning ekologik holati o'rganilib, ularning kimyoviy tarkibi monitoring qilindi (10-jadval).

10-jadval

Tanlangan hududlardagi sug'oriladigan tuproqlarda ayrim ionlarning miqdori

№	Ionlar tarkibi	Tadqiqot hududlari (mg/kg)							REM (mg/kg)
		OKMK	AIES	O'zMK	ASMAK	ANB	YAIES	BS	
1.	Co^{2+}	13,0	10,40	18,0	12,0	15,0	13,0	10,0	50
2.	Cu^{2+}	350	590	38,0	330	47,0	29,0	60,0	55
3.	Zn^{2+}	310	200	130	230	120	105,0	97,0	100
4.	Ni^{2+}	57,0	112,0	95,0	48,0	88,0	145,0	33,0	85
5.	Cd^{2+}	1,10	0,550	0,220	0,880	0,240	0,200	0,160	0,7
6.	V^{3+}	84,0	60,0	140,0	91,0	89,0	160,0	85,0	150
7.	As^{3+}	59,0	64,0	31,0	63,0	46,0	44,0	41,0	2
8.	Pb^{2+}	160	80,0	31,0	220	29,0	34,0	35,0	30
9.	Sb^{3+}	8,40	3,90	1,80	21,0	1,90	2,30	1,60	4,5

Tuproq tarkibida texnogen ta'sir natijasida turli kimyoviy elementlar, jumladan, metall ionlari aniqlangan bo'lib, ularning ayrimlari REM dan ortganligi aniqlandi. Olingan natijalarga ko'ra, tuproqlarda turli kimyoviy elementlar,

jumladan, metall ionlarining REM ga nisbatan oshganligi kuzatildi. Xususan: OKMK hududida: Zn^{2+} – 3,10 marta, Cu^{2+} – 6,36 marta, Pb^{2+} – 5,30 marta, Sb^{3+} – 1,87 marta, As^{3+} – 29,50 marta, Cd^{2+} – 1,57 marta; AIES hududida: Zn^{2+} – 2,0 marta, Cu^{2+} – 10,73 marta, Ni^{2+} – 1,32 marta, Pb^{2+} – 2,67 marta, As^{3+} – 32,00 marta, W^{6+} – 10,0 marta; O‘zMK hududida: Zn^{2+} – 1,30 marta, Ni^{2+} – 1,12 marta, Pb^{2+} – 1,03 marta, As^{3+} – 15,50 marta; ASMAK hududida: Cd^{2+} – 1,25 marta, Zn^{2+} – 2,30 marta, Cu^{2+} – 6,00 marta, Pb^{2+} – 7,30 marta, Sb^{3+} – 4,67 marta, As^{3+} – 31,50 marta; ANB hududida: Zn^{2+} – 1,20 marta, As^{3+} – 23,0 marta, Ni^{2+} – 1,04 marta; YAIES hududida: Zn^{2+} – 1,05 marta, Ni^{2+} – 1,72 marta, Pb^{2+} – 1,13 marta, As^{3+} – 22,00 marta, V^{3+} – 1,07 marta; BS zavodi hududida: Cu^{2+} – 1,09 marta, Pb^{2+} – 1,03 marta, As^{3+} – 20,05 marta oshganligi aniqlandi. Toshkent viloyatining tanlangan hududlarida joylashgan sanoat tarmoqlari atrofidagi suv manbalarida uchraydigan kimyoviy elementlar, jumladan, og‘ir va yengil metall ionlarining tahlili natijasida ularning amaliy miqdori va REM bo‘yicha ma’lumotlar 11-jadvalda keltirildi.

11-jadval

Tanlangan hududlardagi suv manbalarida tarqalgan ionlarning miqdori, mg/l (2021 va 2022 yillar misolida)

Tanlangan hududlar	Miqdori, mg/l										
	K ⁺	F ⁻	Na ⁺	Pb ²⁺	Cr ³⁺	Cu ²⁺	Mn ²⁺	As ³⁺	Al ³⁺	Ni ²⁺	Zn ²⁺
2021 yil oktabr oyi holatiga ko‘ra											
OKMK	51,1	0,76	151,00	0,011	0,0007	0,0011	0,003	0,07	<0,006	0,06	0,0054
AIES	51,6	0,78	149,00	0,029	0,0015	0,0037	0,023	0,03	0,03	0,04	0,0064
O‘zMK	51,9	0,79	145,00	0,008	0,0009	0,0035	0,002	0,05	<0,02	0,07	0,0044
ASMAK	52,4	0,81	128,00	0,016	0,001	0,0054	0,008	0,08	<0,009	0,02	0,0048
ANB	54,9	0,88	136,00	0,006	0,0004	0,0027	0,005	0,04	<0,001	0,09	0,0045
YAIES	53,8	0,85	146,00	0,034	0,0009	0,0014	0,012	0,02	<0,01	0,01	0,0241
BS	52,7	0,76	139,00	0,007	0,0008	0,0034	0,004	0,04	<0,01	0,11	0,0046
2022 yil noyabr oyi holatiga ko‘ra											
OKMK	54,3	0,84	150,00	0,026	0,0006	0,0054	0,01	0,04	<0,004	0,04	0,0065
AIES	52,5	0,83	147,00	0,018	0,0007	0,0043	0,014	0,02		0,01	0,0086
O‘zMK	54,4	0,88	141,00	0,009	0,0008	0,0059	0,003	0,03	<0,007	0,09	0,0046
ASMAK	52,4	0,85	128,00	0,029	0,0009	0,0046	0,013	0,03	<0,006	0,02	0,0084
ANB	53,4	0,81	146,00	0,005	0,0006	0,0028	0,006	0,05	<0,006	0,04	0,0061
YAIES	51,9	0,78	139,00	0,011	0,0005	0,0025	0,015	0,04	<0,009	0,07	0,0056
BS	55,3	0,81	129,00	0,012	0,0004	0,0064	0,002	0,05	<0,008	0,12	0,0045
REM	50,0	0,75	120,00	0,030	0,0010	0,0010	0,100	0,0100	0,10	0,05	0,200

Natijalar tahliliga ko‘ra, OKMK suv manbalarida F^- , K^+ , Na^+ , Cu^{2+} , Ni^{2+} ionlari; AIES suv manbalarida F^- , K^+ , Na^+ , Cu^{2+} ionlari; O‘zMK suv manbalarida F^- , K^+ , Na^+ , Cu^{2+} , Ni^{2+} ionlari; ASMAK suv manbalarida F^- , K^+ , Na^+ , Cu^{2+} ionlari; ANB suv manbalarida F^- , K^+ , Na^+ , Cu^{2+} , Ni^{2+} ionlari; YAIES suv manbalarida F^- , K^+ , Na^+ , Pb^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} ionlari hamda BS suv manbalarida F^- , K^+ , Na^+ , Cu^{2+} , Ni^{2+} ionlari miqdori REMdan ortganligi aniqlandi.

Toshkent viloyatining tanlangan hududlarida o‘tkazilgan monitoring natijalari shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqarish va kimyo sanoati korxonalarining atrof-muhitga ta’siri natijasida ushbu hududlardagi yer usti suvlari tarkibida K^+ , F^- , Na^+ , Cu^{2+} , Ni^{2+} va Pb^{2+} ionlari miqdori REMdan yuqori ekanligi aniqlandi. Sanoat ishlab chiqarish korxonalaridan chiqayotgan gazlar, oqova suvlar va chiqindilarning atrof-muhit obyektlariga ta’sirini monitoring qilish natijasida, zaharli OZM ionlarining kengroq

hududlarga tarqalishida shamolning ta'siri yuqori, yer osti va yer usti suvlarining ta'siri esa nisbatan past ekanligini tasdiqladi.

Hozirgi kunda harakatlanuvchi manbalar – avtomobillar, yuk mashinalari, avtobuslar, poyezdlar, samolyotlar va boshqa transport vositalari atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalarining asosiy manbalari hisoblanadi. Respublikamizning turli hududlarida ushbu ifloslantiruvchi moddalar bo'yicha monitoring o'tkazildi. Havo tarkibidagi asosiy metallar va ularning xususiyatlari quyidagicha tavsiflanadi. Temir (Fe), rux (Zn) va volfram (W) – metallurgiya, qurilish changlari, avtomobil shinalari, tabiiy chang manbalari va sanoat chiqindilaridan paydo bo'lib tarqaladi. Nikel (Ni) – asosan yoqilg'i mahsulotlari, xususan mazut yonishidan havoga chiqadi hamda sanoat chiqindilari orqali tarqaladi. Uning zaharlilik darajasi o'rtacha bo'lib, allergik ta'sirlarga sabab bo'ladi. Mis (Cu) – avtomobil tormoz tizimlari va sanoat chiqindilaridan kelib chiqadi. REMdan yuqori miqdorda bo'lsa, nafas yo'llariga zarar yetkazadi. Qo'rg'oshin (Pb) – avtomobil yonilg'isi, akkumulyator ishlab chiqarish va sanoat chiqindilaridan hosil bo'ladi. Zaharliligi yuqori bo'lib, asab tizimi va miya faoliyatiga zarar yetkazadi. Kadmiy (Cd) – metallurgiya sanoati, chiqindi yoqish va sanoat gazlaridan hosil bo'ladi. Bu metall organizmga tushganda buyrak kasalliklarini keltirib chiqarishi va suyaklarning mo'rtlashishiga olib keladi. Xrom (Cr) – metallurgiya, po'lat ishlab chiqarish va sanoat chiqindilaridan kelib chiqadi. Yuqori zaharlilikka ega bo'lib, o'pka va saraton kasalliklarini rivojlanishiga olib keladi. Mishyak (As) – asosan ko'mir yoqish va kimyo sanoati chiqindilaridan hosil bo'ladi. Yuqori zaharlilikka ega bo'lib, o'pka va teri kasalliklarini keltirib chiqaradi. Vanadiy (V) – yonilg'i mahsulotlari, xususan neft mahsulotlari yonishi natijasida havoga chiqadi. Marganets (Mn) – metall ishlab chiqarish, payvandlash jarayonlari va sanoat chiqindilaridan tarqaladi.

O'zbekiston Respublikasining sanoat markazlari atrofida havoga chiqarilayotgan chang tarkibi turli mineral moddalar, metall oksidlari, silikatlar, qora tutun, ftoridlar, mishyak, surma va selen oksidlarini o'z ichiga oladi. Monitoring natijalari shuni ko'rsatadiki, yirik sanoat shaharlarida chang tarkibida Fe, Cd, Cu, Pb, Ni va Mn elementlari aniqlangan. Masalan, mis sanoati chiqindilari tarkibida Cu, Fe, Zn, Co va Ni kabi qimmatbaho metallar mavjud bo'lib, ular ekologiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, kimyo sanoati korxonalarini suv, havo va tuproqni ifloslantiruvchi omillar qatoriga kiradi. Havo tarkibida uchraydigan metallar transport vositalari, sanoat chiqindilari, yonilg'i yonishi va tabiiy jarayonlar natijasida kelib chiqadi. Ushbu zarrachalar havoda uzoq vaqt saqlanib, inson salomatligi va atrof-muhit uchun xavf tug'diradi. Monitoring natijasida Respublikamizning 100 mingdan ortiq aholiga ega bo'lgan shaharlar atmosferasidagi og'ir metallar kontsentratsiyasi Andijon shahrida REMdan oshganligi kuzatildi. Viloyatlar atmosferasidagi og'ir metallar kontsentratsiyasi esa Toshkent shahri va Toshkent viloyatida eng yuqori ekanligi aniqlandi. Shu sababli, ushbu ifloslanishni kamaytirish uchun ekologik toza transport vositalaridan foydalanish, sanoat chiqindilarini minimallashtirish hamda atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalarning monitoringi va ularni kamaytirish choralari muhim ahamiyatga ega.

Surxondaryo viloyatidagi tabiiy buloq va daryo suvlari monitoringi uchun tarkibi turlicha bo'lgan 11 ta namuna 2022 yil 12-16 avgust kunlari quyidagi hududlardan olinib, tahlil qilindi: «To'palang suv ombori» (№1), «Xo'jaipok» buloq suvi (№2), «Surxon suv ombori» (№3), «Oltinugurt buloq suvi» (№4), «Xandiza buloq suvi» (№5-6) va «Hazrati Xo'ja Siddiq Sahoba» ziyoratgohi (№7-11). O'tkazilgan tahlil va monitoring natijalari shuni ko'rsatdiki, «To'palang suv ombori» da ionlarning miqdori REMdan oshmagan, biroq boshqa tabiiy buloq va daryo suvlari tarkibida faqat temir ionlari miqdori REMdan 1,52 martadan 14,48 martagacha oshgani aniqlandi, qolgan ionlarning miqdori esa belgilangan chegaradan oshmagan.

XULOSALAR

1. Naftalin asosidagi yangi organik reagentlar bilan Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn va Hg(II) ionlarini aniqlashning spektrofotometrik usuli uchun optimal sharoitlar suvli muhitda: Fe(III) va Co(II) ionlarini HR¹ bilan, Co(II), Cu(II) va Hg(II) ionlarini HR² bilan kuchsiz kislotali, Cu(II) ionini HR¹ bilan, Zn ionini HR³ bilan neytral, Ni(II) va Cu(II) ionlarini HR³ bilan kuchsiz ishqoriy muhitlarda tanlandi, nur yutish maksimumlarining batoxrom va gipsoxrom siljishlari $\Delta\lambda=60-230$ nm gacha, Sendel bo'yicha sezgirliklari 0,0031-0,0170 mkg/sm² oraliqlarda ekanligi o'rnatildi hamda optimallashtirilgan sharoitlarda yangi aniqlash uslublari yaratildi.

2. Atrof-muhit obyektlari tarkibidan Fe³⁺, Co²⁺, Ni²⁺, Cu²⁺, Zn²⁺ va Hg²⁺ ionlarini yangi organik analitik reagentlar: 5-gidroksi-6-nitrozonaftalin-2-sulfokislota, 4-gidroksi-3-nitrozonaftalin-1-sulfokislota, 4,5-digidroksi-3,6-dinitrozonaftalin-2,7-disulfokislota va 4-amino-5-gidroksi-6-[(5-metil-2-piridilazo)]-3-sulfonaftalin-1-sulfokislota bilan spektrofotometrik aniqlash uslublari tavsiya qilindi.

3. Atrof-muhit obyektlari tarkibidan Fe³⁺, Co²⁺, Cu²⁺ ionlarini HR¹ bilan, Co²⁺, Cu²⁺, Hg²⁺ ionlarini HR² bilan, Ni²⁺, Cu²⁺, Zn²⁺ ionlarini HR³ bilan, shuningdek Cu²⁺, Zn²⁺, Hg²⁺ ionlarini HR⁴ bilan spektrofotometrik aniqlashning optimallashtirilgan sharoitlarida komplekslarning Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysinishi o'rnatildi hamda 25,0 sm³ suvli eritmada HR¹ bilan Fe(III) ion uchun 2,0-48,0 mkg, Co(II) ion uchun 1,0-18,0 mkg va Cu(II) ion uchun 2,0-45,0 mkg; HR² bilan Co(II) ion uchun 1,0-30,0 mkg, Cu(II) ion uchun 1,0-42,0 mkg va Hg(II) ion uchun 2,0-50,0 mkg; HR³ bilan Ni(II) ion uchun 5,0-55,0 mkg, Cu(II) ion uchun 5,0-40,0 mkg va Zn ion uchun 2,0-35,0 mkg, HR⁴ bilan Cu(II) ion uchun 0,50-6,50 mkg, Zn ion uchun 1,0-18,0 mkg va Hg(II) ion uchun 1,0-40,0 mkg oralig'ida komplekslar hosil qilish reaksiyalariga asoslanib, aniqlash uslublari tavsiya etildi.

4. Naftalin asosidagi yangi organik reagentlar bilan Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn va Hg(II) ionlarini hosil qilgan komplekslarining haqiqiy molyar so'ndirish koeffitsientini organik reagentlarga nisbatan batoxrom siljishlari: $\varepsilon(\text{CoR}^1_2) = 40000 < \varepsilon(\text{CuR}^1_2) = 61350$; $\varepsilon(\text{CoR}^2_2) = 19531 < \varepsilon(\text{CuR}^2_2) = 20000 < \varepsilon(\text{HgR}^2_2) = 23530$; $\varepsilon(\text{NiR}^3_2) = 23585 < \varepsilon(\text{ZnR}^3_2) = 28571 < \varepsilon(\text{CuR}^3_2) = 42608$ va barqarorlik konstantalarini $\beta(\text{CoR}^1_2) = 1,25 \cdot 10^{19}$ ($\lg\beta=19,10$) $< \beta(\text{CuR}^1_2) < 1,36 \cdot 10^{20}$ ($\lg\beta = 20,13$); $\beta(\text{CoR}^2_2) = 4,15 \cdot 10^{19}$ ($\lg\beta=19,62$) $< \beta(\text{CuR}^2_2) = 5,71 \cdot 10^{20}$ ($\lg\beta=20,75$) $< \beta(\text{HgR}^2_2) = 6,49 \cdot 10^{21}$ ($\lg\beta=21,81$); $\beta(\text{NiR}^3_2) = 8,85 \cdot 10^{22}$ ($\lg\beta= 23,00$) $< \beta(\text{ZnR}^3_2) = 2,86 \cdot 10^{23}$ ($\lg\beta=23,46$) $< \beta(\text{CuR}^3_2) = 1,63 \cdot 10^{24}$ ($\lg\beta=24,21$); $\beta(\text{ZnR}^4_2) = 2,97 \cdot 10^{17}$ ($\lg\beta=17,47$)

$\beta(\text{CuR}^4_2) = 1,44 \cdot 10^{21}$ ($\lg\beta=21,16$) $< \beta(\text{HgR}^4_2) = 1,18 \cdot 10^{22}$ ($\lg\beta=22,07$) ketma-ketligida ortib borish qonuniyati aniqlandi va $\text{Co} < \text{Ni} < \text{Zn} < \text{Cu} < \text{Hg}$ qatorida xelatlanish qonuniyatlariga mos kelishi isbotlandi hamda yetarlicha barqaror ekanligi tasdiqlandi.

5. Ishlab chiqilgan uslublarning to'g'riligi va qayta tiklanuvchanligi "kiritildi-topildi" usuli yordamida o'rnatildi, ushbu ionlarni quyi aniqlanish chegaralari $\text{mkg}/25,0 \text{ sm}^3$ da: FeR^1_3 uchun 0,1120; CoR^1_2 uchun 0,3094; CuR^1_2 uchun 0,0492; CoR^2_2 uchun 0,6714; CuR^2_2 uchun 0,2860; HgR^2_2 uchun 0,6200; NiR^3_2 uchun 0,6004; CuR^3_2 uchun 0,2390; ZnR^3_2 uchun 0,1220; CuR^4_2 uchun 0,2338; ZnR^4_2 uchun 0,1746 va HgR^4_2 uchun 0,7618 ga teng ekanligi aniqlandi, atrof-muhit obyektlari tarkibidan aniqlash uslublarini tabiiy suvlar, standart namunalarda, rudalar va ashyoviy dalillar analiziga qo'llanilib, olingan natijalarda nisbiy standart chetlanish $S_r=0,1150$ dan oshmadi, boshqa alternativ DavST usullari bilan solishtirildi, natijalarning to'g'riligi, sistematik xatoliklar yo'qligi Styudent mezonlari bilan analitik va metrologik tavsiflarini yuqoriligi tasdiqlandi.

